O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TO’RAYEV ALISHER FAXRITDIN O’G’LINING

# MUSTAQILLIK YILLARIDA FARG’ONA VODIYSI SHAHARLARIDA IJTIMOIY-MADANIY TARAQQIYOT

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi U.Mansurov

Namangan - 2015

## MUNDARIJA


| | | |
|---|---|---|
| | **KIRISH……………………..……………………………….** | 3 |
| **I BOB.** | **MUSTAQILLIK YILLARIDA FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA IJTIMOIY-IQTISODIY JARAYONLAR** | |
| 1.1. | XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Farg'ona vodiysidagi ijtimoiy-demografik jarayonlarning xususiyatlari………………………… | 8 |
| 1.2. | Mustaqillik yillarida Farg'ona vodiysi shaharlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari……………… | 14 |
| **II BOB.** | **MUSTAQILLIK YILLARIDA FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA MADANIY JARAYONLAR** | |
| 2.1. | Mustaqillik yillarida Farg'ona vodiysi shaharlarida madaniy hayot………………………………………………………...... | 29 |
| 2.2. | Mustaqillik yillarida Farg'ona vodiysida ta'lim tizimining isloh qilinishi…………………………………………………… | 43 |
| | **XULOSA……………………………………………………** | 47 |
| | **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI……………** | 50 |

# KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Mustaqillik sharoitida jamiyat hayotida tub islohotlarni amalga oshirish jarayonida milliy tiklanish, ma’naviy yangilanish, milliy o‘zlik va o‘ziga xoslikni yaxlit tarzda anglab yetishda, erkin demokratik tafakkurga ega bo‘lgan, mustahkam milliy g‘oya kuchi bilan birlashgan jamiyat a’zolarini tarbiyalash vazifalarini hal etishda tarix fanining roli jiddiy ravishda ortib bormoqda. Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov: “Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o‘zi tug‘ilib voyaga etgan qishloq, shahar, xullaski, vatanining tarixini bilishni istaydi...”,–deb ta’kidlaydi[1].

Mustaqillik yillarida tarix faniga e’tibor davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘tgan yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ko‘rsatmalari asosida Vatan tarixini mustaqillik ruhi bilan sug‘orilgan holda xalqqa yetkazish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirildi.

Buyuk ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan Farg‘ona vodiysi o‘zining tabiiy geografik sharoiti, iqlimining qulayligi, tuproq va suv resurslarining mo‘lligi bilan alohida ajralib turadi. Shuning uchun eng qadimgi davrlardan boshlab bu xududda hayotning uzluksiz davom etganligini va aholini doimo zich joylashganligini ko‘ramiz.

Jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar muhim o‘rin tutadi. Shu sababli uning rivojlanish yo‘nalishlarini mukammal o‘rganish va ilmiy tahlil etish zarurdir. Respublika tarixini ayrim hududlar, shaharlar, viloyatlar misolida o‘rganish, shubhasiz o‘tmishni yanada chuqur va mukammalroq tarzda yoritilishi uchun imkoniyat yaratadi. Shaharlar tarixini o‘rganish tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lib kelgan dolzarb mavzulardan biridir. Shaharlarning paydo bo‘lishi, ularning rivojlanishi borasida butun bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar tarixi gavdalanadi. Chunki, jamiyat tarixida shaharlar doimo muhim ahamiyat kasb

[1] Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Тошкент: Шарқ, 1998. –Б. 6.

etib kelgan. Tarixiy taraqqiyot jarayonida shaharlarning qiyofalari doimo o‘zgarib borgan va shu bilan birga jamiyatda tutgan rollari ham oshib borgan.

Farg‘ona vodiysidagi shaharlar o‘zining tutgan o‘rni, salohiyatiga ko‘ra, Respublikada yetakchi o‘rinlarni egallaydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov e’tirof etganidek: “Faqatgina mana shu Farg‘ona vodiysining o‘zida latif shahar deb nom olgan Qo‘qon, qadimiy Andijon, go‘zal Namangan, Ko‘hna Axsikent kabi tariximizda iz qoldirgan shahar va qo‘rg‘onlarning nomlarini ulug‘lash va ularning ham qutlug‘ sanalarini keng miqyosida nishonlash-bularning barchasi bizning oldimizda turgan katta vazifadir”[2].

Xalqning bosib o‘tgan qariyb bir asrlik tarixiga faqat salbiy voqealar davri deb qaramaslik, balki bu yaqin o‘tmishga xolisona baho berish bugunning vazifasidir. Umuman, tarixni, ajdodlar qoldirgan boy merosni ro‘yirost, xolisona o‘rganib, adolat bilan tadqiq va talqin qilish bosh mezon bo‘lmog‘i kerak. Tarixni chuqur idrok etish kishilarda yo‘l qo‘yilgan xatolarni takrorlamaslik, undan saboq chiqarib, bugungi kun va kelajak uchun fidokorlik hissini tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Shu bois tadqiqotchilar tarixni to‘la-to‘kis, hech qanday g‘oyaviy liboslarga burkamasdan, ya’ni uning o‘zi qanday bo‘lsa, xuddi shundayligicha xalq mulkiga aylanishiga o‘z hissalarini qo‘shmoqlari kerak.

Yuqoridagilarda qayd etilgan holatlar mustaqillik yillari davriy chegarasi doirasida Farg‘ona vodiysi shaharlaridagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixi mavzusining dolzarbligini belgilab berdi.

**Mavzuning o‘rganilishi.** Vatanimiz tarixshunosligida shaharlar tarixini o’rganish maxsus ilmiy yo’nalish sifatida asosan XX asrning 50 yillaridan boshlandi. Bu sohada qo’yilgan dastlabki amaliy qadamlarning natijalari vodiy shaharlari haqida iqtisodiy, jug’rofiy, tarixiy va statistik ma’lumotlar to’plami shaklida Z.Akramov, Yu.Xonkeldiyev, S.Tillaxo’jayev, X.Nurmuxammedov,

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning Marg‘ilon shahrining 2000 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan // Ishonch. 2007 yil 8 sentyabr.

S.Jalilov va boshqalarning asarlari chop etildi. Bu asarlarda Farg'ona vodiysi va shaharlari haqida umumiy tarixiy ma'lumotlar berilgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng tariximizni, jumladan shaharlar tarixini xolisona va adolatli o'rganishga keng imkoniyatlar yaratildi. Istiqlol sharofati bilan shaharlarimiz, millatimizning faxr-iftixori, uning iqtisodiy, siyosiy, madaniy va bilim darajasini o'zida aks ettiruvchi ko'zgu sifatida milliy davlatimizni va uning bunyodkor xalqini jahonga tanitishda muxim rol o'ynamoqda. Binobarin, xozirgi kunda shaharlarimizning mustaqillik davri tarixini tadqiq etishda ana shu nuqtai nazardan yondashilmoqda.

Mustaqillik yillarida yangi uslubiy yondashuvlarning shakllanishi davrida yozilgan risolalar, darsliklar[3], turli to'plamlar[4], hamda doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarning ilmiy-nazariy, manbaviy asoslarida, mazmunida yaqqol namoyon bo'ldi. Shuningdek, O.Ata–Mirzaev, V.Gentshke, H.Z.Ziyoev, D.H.Ziyaeva, R.Murtazaeva, M.Sodiqov, Q.Usmonov, M.Haydarov, Z.Haydarovlar kabi mualliflarning asarlari yaratildiki, ularda Farg'ona vodiysi shaharlarinig o'tmish tarixi, bugungi kuni xususida ayrim qimmatli ma'lumotlar o'rin olgan[5].

O'zbekistonning yangi tarixini yaratishda o'zbek xalqiga xos xususiyat-larning qadimiy tarixini, betakror madaniyati va qadriyatlarini, ayniqsa bag'rikenglik (tolerantlik) va millatlararo totuvlik g'oyalarini o'zida mujassam etgan asarlar yaratildi. Masalan, O.Ata-Mirzaev, V.Gentshke, R.Murtazaevalar tomonidan yozilgan "Mejnatsionalnaya tolerantnost v Uzbekistane: istoriya i

---

[3] Rajabova R.YO. va b. O'zbekiston tarixi (1917-1993 yyillar). 9-sinf uchun. –Toshkent., 1994.

[4] XX asrning dastlabki o'ttiz yilligida O'zbekistonda tarix fani (tarixshunoslik ocherklari). 1-2 qismlar. Ma'sul muharrir D.A.Alimova. –Toshkent., 1994; Turkiston mustaqilligi va birligi uchun kurash sahifalaridan. –Toshkent., 1996.

[5] Ziyoev H. O'zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi (mil. oldingi asrdan to 1991 yil 31 avgustgacha). –Toshkent: SHarq, 2001. – 447b; Ziyoeva D. Turkistonda milliy ozodlik harakati. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va sanat nashriyoti, 2000. – 174 b; Uning o'zi. "Bosmachilik" qanday paydo bo'ldi // Tafakkur. –Toshkent, 1997. –№3. –B. 32-37; Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный историко-демографический аспект. –Ташкент: Абу Али Ибн Сина, 1998. –С. 2; Usmonov Q, Sodiqov M.O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). –Toshkent: SHarq, 2009. – 256 b; Xaydarov M. Turkiston iqtisodiyotida "Harbiy kommunizm" siyosati //O'zbekiston tarixi. –Toshkent, 2003. –№3. –B. 43.

sovremennost'"[6] nomli risolada O'zbekistonda millatlararo bag'rikenglik (tolerantlik) masalasiga tarixiylik, demografik, sotsiologik nuqtai nazaridan yondoshilganligi muxim ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari**. O'rganilayotgan masalaning dolzarbligi va xali tadqiqot obyekti sifatida taxlil etilmaganligini xissobga olgan xolda, biz oldimizga mustaqillik yillarida taraqqiyot yo'lini, yangi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarning shakllanish jarayonlarini taxlil etishni va to'plangan ijobiy tajribalarning umumlashtirishni maqsad qilib qo'ydik.

Tadqiqotning maqsadi mustaqillik yillarida Farg'ona vodiysi shaharlaridagi ijtimoiy-madaniy hayotni yoritishdan iborat. Ana shu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar rejalashtirildi:

- XX asr oxiri – XXI asr boshlarida Farg'ona vodiysidagi ijtimoiy-demografik jarayonlarning xususiyatlari aniqlash;
- Mustaqillik yillarida Farg'ona vodiysi shaharlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari taxlil qilish;
- Mustaqillik yillarida Farg'ona vodiysi shaharlarida madaniy jarayonlarni o'rganish.
- Mustaqillik yillarida Farg'ona vodiysida ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni manbalar asosida taxlil qilishdan iborat.

**Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslari.** Mavzuni yoritish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida ilgari surilgan Vatan tarixini manbalar asosida haqqoniy o'rganish, xolislik va tarixiylik tamoyillariga asosiy e'tibor qaratishga oid g'oyalari nazariy asos vazifasini bajardi. Tadqiqot jarayonida muammoni yangi tarixiy tafakkurning konseptual nuqtai-nazaridan idrok etishga, tarixiy voqealar xarakterini ularning real mazmuni asosida, hozirgi

[6] Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Многонациональная толерантность в Узбекистане: история и современность. –Ташкент, 2006. –С.170.

zamon tarix fani talablari kontekstida ochib berishga asosiy e’tibor qaratildi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** O‘zbekiston mustaqilikka erishgandan so‘ng, Vatan tarixini o‘rganishga qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan Vatanimiz qadimiy shaharlarining yubileylarini nishonlanishi bilan bir qatorda teran ildizga ega bo‘lgan O‘zbekiston tarixini bir bo‘lagi Farg‘ona vodiysi shaharlarini ilmiy jihatdan o‘rganish Vatan tarixini yangi fakt va dalillar bilan yanada to‘ldiradi. Ayniqsa, tadqiqot materiallari shaharlar tarixini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Shuningdek, ulardan darsliklar, adabiyotlar, qo‘llanmalar yaratishda, oliy o‘quv  yurtlari tarix fakultetlari bakalavrlari uchun maxsus kurslar tashkil etishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqotning tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro`yxatidan iborat.

# I BOB. MUSTAQILLIK YILLARIDA FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA IJTIMOIY-IQTISODIY JARAYONLAR.

## 1.1. XX asr oxiri-XXI asr boshlarida Farg‘ona vodiysidagi ijtimoiy-demografik jarayonlarning xususiyatlari

O‘zbekistonning har bir xududi, vohasi, viloyatlari, shaharlari yagona bir milliy davlat tasarrufida bo‘lsa-da, ular ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy va demografik sohalarda bir-biridan o‘ziga xos mahalliy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu hozirgi kunga kelib, dunyo tamadduni taraqqiyotiga o‘z munosib hisasini qo‘shgan Markaziy Osiyoning qadimiy sivilizatsiya o‘choqlaridan biri hisoblangan mamlakatimizning Zarafshon, Xorazm, Surxon kabi vohalari ijtimoiy hayotida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ular orasida respublikaning sharqiy mintaqasi hisoblangan Farg‘ona vodiysi ham xududiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan mamlakatning boshqa viloyatlariga qaraganda, ayrim o‘ziga xos xususiyatlarga egadir. Ushbu xususiyatlar vodiyning qadimdan to hozirgi kunga qadar davom etgan tarixiy jarayonlar ta’sirida shakllangan. Ayniqsa, oxirgi bir yarim asr davomida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar mustaqillik yillariga kelib, ushbu hududda qator dolzarb muammolar to‘planib qolganligidan dalolat berib, ularni islohotlar jarayonida hal qilish masalasini ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Mutaxassislar tili bilan aytganda, "umumrespublikaga xos bo‘lgan muhim muammolar o‘ta jiddiy tus olganligi bilan Farg‘ona vodiysida o‘z aksini topgan, bunda sanoatning rivojlanganligi, urbanizatsiya, demografiya, aholining joylashuvi, hududiy harakati, ekologiyasi asosiy o‘rin egallaydi"[7].

Xususan, XX asr oxiri XXI asr boshlariga kelib Farg‘ona vodiysi viloyatlarida shakllangan ijtimoiy-demografik xususiyatlar quyidagilarda namoyon bo‘ldi: Birinchi xususiyat demografik jarayonlar bilan bog‘liqdir. Ma’lumki, respublika umumiy yer maydonining faqat 4,3% ni egallagan Farg‘ona vodiysi viloyatlarida mamlakat aholisining deyarli 30% jamlangan. Ya’ni uchta

[7] Abdullaev O. Farg‘ona vodiysi: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari. –Namangan, 2000. – B. 29.

viloyatning umumiy maydoni 19,2 ming kv.km tashkil etadi, shundan Andijon viloyatining maydoni 4,2; Namangan - 7,9; Farg‘ona - 7,9 ming kv.km.ga teng. Bu esa vodiyda O‘zbekistonning boshqa hududlariga nisbatan aholining o‘ta zich joylashganlik xususiyatini keltirib chiqardi. Masalan, 1994 yil ma’lumotlariga ko‘ra bir kv.km.ga respublika bo‘yicha o‘rtacha — 49,6 kishi to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich Andijon viloyatida - 464,6, Namanganda - 215,1, Farg‘onada - 337,7 nafarni tashkil qildi. 2004 yilga kelib bu raqamlar, tegishli ravishda, respublika bo‘yicha 57,5 nafarni hamda vodiy viloyatlari bo‘yicha 551,2; 275,3; va 419,6 nafarni tashkil qildi. 2013 yilda Andijon viloyati aholisining zichligi har bir kv.km.ga 461 nafarni, Namanganda 330 va Farg‘onada 460 nafarni tashkil qildi[8].

Farg‘ona vodiysi bo‘yicha o‘rtacha olganda, 1994 yilda bir kv.km.ga 339,1 kishi to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2004 yilda bu raqam 415,4 nafar va 2013 yilda esa deyarli 420 nafarni tashkil qildi. Bu respublika bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan deyarli yetti barobar ko‘pdir.

Vodiy aholisining zichligi va tabiiy o‘sish darajasining nisbatan yuqoriligi aholini qator maishiy muammolar (jumladan, uy-joy bilan ta’minlash masalasi) bilan birga, ijtimoiy ya’ni bandlik muammosi va mehnat resurslarining migratsiyasini keskinlashtiradi. Ma’lumki, O‘zbekiston aholisining yarmidan ko‘prog‘ini yoshlar tashkil qilishi hamda aholining tez sur’atlar bilan o‘sishini e’tiborga olsak, bu muammolar yanada jiddiy tus oladi. Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, mustaqillik arafasida Farg‘ona vodiysi viloyatlarida 1 mlnga yaqin mehnat yoshidagi aholi normal ish bilan ta’minlanmagan edi.

Ikkinchi xususiyat-urbanizatsion jarayonlar bilan bog‘liqdir. Xususan, Farg‘ona vodiysi qadimdan urbanizatsion jarayonlar tez rivojlangan xudud bo‘lib hisoblansada, hozirgi davrga kelib vodiy viloyatlarida urbanizatsiya ko‘rsatkichlari respublikaning o‘rtacha ko‘rsatkichiga nisbatan pastdir. Masalan,

---

[8] Abdullaev O. Farg‘ona vodiysi: ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari. –Namangan, 2000. – B. 30 b.

1990 yillar boshlarida O‘zbekistonda aholining 39,0% shaharlarda istiqomat qilgan bo‘lsa, vodiyda bu ko‘rsatkich 34,5% foizdan ortmagan.

Mustaqillik yillarida respublika bo‘yicha ham hududlar bo‘yicha ham qishloq aholisining salmog‘i ortganligi bilan izohlanadi. Natijada 2005 yil boshida bu raqamlar tegishli ravishda 36,5 va 31,9 % ni tashkil qildi. Ayniqsa, Andijon va Farg‘ona viloyatlarida urbanizatsiya jarayoni sust borganligi kuzatildi. Jahon amaliyotining dalolat berishicha, shaharlar taraqqiyotning asosi bo‘lib, iqtisodiy o‘sishning 80 % aynan ular hissasiga to‘gri kelar ekan. Shu jihatdan olib qaraganda, vodiy viloyatlarida urbanizatsion jarayonlarni jadallashtirishning nafaqat iqtisodiy, balki ko‘proq ijtimoiy ahamiyati salmoqlidir.

Farg‘ona viloyatida o‘rtacha doimiy aholi soni 2008 yildagi ma’lumotga ko‘ra, 2965679 mln. kishi bo‘lib, shundan xotin-qizlar soni 1482839 mln. nafarni tashkil etdi. Farg‘ona viloyatidagi yoshlarning soni 1456110 nafarni, shundan yosh xotin-qizlar soni 742560 nafarni tashkil etadi[9].

Namangan viloyatida o‘rtacha doimiy aholi soni 2008 yildagi ma’lumotga ko‘ra 2204674 mln. kishi bo‘lib, shundan xotin-qizlar soni 1047851 mln. nafarni tashkil etdi. Viloyat aholisining 37,7 foizi shaharda, 62,3 foizi qishloqda istiqomat qiladi. Namangan viloyatida yoshlarning soni 1097779 nafar bo‘lib, shundan yosh xotin-qizdar soni 603 500 nafarni tashkil etdi.

Farg‘ona vodiysi yoshlarining ijtimoiy - demografik holati tahlil etilar ekan, bu o‘rinda vodiy yoshlarining ikki guruhiga alohida e’tibor qaratish mumkin. Farg‘ona vodiysida 7-13 yoshlar 1187707 nafarni tashkil etdi. Farg‘ona vodiysida 14-30 yoshlilar 2572304 nafarni tashkil etdi. Statistik ma’lumotlar tahlili ko‘rsatishicha, 1991-2008 yillar davomida respublikada tug‘ilish ko‘rsatkichi muntazam kamaygan va bu ko‘rsatkich 1991 yilda 723,4 ming kishiki tashkil etgan bo‘lsa, 1995 yilda 677,7 ming kishi, 2000 yilda 527,6 ming kishi, 2005 yilda 533,5 ming kishiga teng bo‘lgan yoki 26,3 % ga kamaygan. 2008 yilda esa

[9] www.gov.uz

646 ming kishini tashkil etgan. Bu jarayonni tug‘ilishning umumiy, maxsus va yig‘indi koeffitsientlarida ham kuzatish mumkin. Agar 1991 yil respublikada tug‘ilishning umumiy koeffitsienti-34,5 %ni tashkil etgan bo‘lsa, 2005 yilda bu ko‘rsatkich 20,3 %ga, tug‘ilishning maxsus koeffnsienti 152,1 % dan 73,57 % ga, tug‘ilishning yig‘indi koeffitsienti esa 4,19 % dan 2,16% ga kamaygan. Ta’kidlash lozimki, tug‘ilish ko‘rsatkichining kamayish jarayoni respublikaning shahar joylariga nisbatan qishloqlarida yuqori sur’atda bo‘lgan. Jumladan, 1991-2005 yillar mobaynida shaharda tug‘ilishning umumiy koeffitsienti 9,4 punktga kamaygan bo‘lsa, qishloqda esa 17,7 punktga kamaygan.

Umuman olganda, tug‘ilish ko‘rsatkichining kamayishi respublikaning barcha viloyatlarida ham kuzatilgan. Agar 1991-2008 yillarda tug‘ilishning umumiy koeffitsienti respublikada 14,2% ga kamaygan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich Toshkent shahrida 4,4% ga, Toshkent, Xorazm, Farg‘ona, Sirdaryo, Navoiy, Buxoro va Andijon viloyatlarida 10,8-14,9% ga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Namangan, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida 16,2-18,9% ga, tug‘ilish ko‘rsatkichi doimo yuqori bo‘lib kelgan Surxondaryo viloyatida esa 20,6% ga kamaygan. Qiyosiy tahlillardan ko‘rinib turibdiki, yangi iqtisodiy munosabatlar sharoitida respublika va uning barcha hududlarida tug‘ilish ko‘rsatkichi keskin kamaygan[10].

Demak, o‘zbek oilalarida avloddan-avlodga o‘tib borgan sari oiladagi mavjud va maqbul hisoblangan farzandlar soni asta-sekin kamayib bormoqda. Agar o‘rta avlod vakillari ko‘p bolali (5-7 ta) oilalarni maqbul oilalar deb hisoblashgan bo‘lsalar, bugungi avlod vakillari esa shaharlarda 1-2 ta, qishloqlarda 3-4 ta bolali oilalarni ma’qul oila deb ta’kidlashmoqda. Ayrimlar esa ota-ona va ikkita farzand, ya’ni to‘rt kishilik oilani eng maqbul oila deb qarashmoqda. Biz hozirgi yosh avlod vakillarining oiladagi farzandlar soniga bo‘lgan munosabati kam farzandlik sari

[10] Ата-Мирзаев О., Гентшке И., Муртазаева Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. –Ташкент: Университет, 2002. –С. 15.

o‘zgarganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu o‘z navbatida hozirgi kunda songa emas, balki sifatga e’tibor berish kuchayganligidan dalolat bermoqda.

2014 yilga kelib respublikaning barcha viloyatlarida kuzatilgani kabi vodiyda ham urbanizatsiya ko‘rsatkichi keskin o‘sdi. Xususan, Andijon viloyatida u 52,7%, Namanganda - 63,9% va Farg‘onada - 57,2%ga qadar ko‘tarildi. Vodiy viloyatlari bo‘yicha o‘rtacha 57,9%ga teng bo‘ldi. Keskin o‘zgarish 2009 yilda ma’muriy ravishda, respublika bo‘yicha 966 ta qishloqlar shahar tipidagi qishloqlarga o‘tkazilishi bilan izohlanadi. Ammo shahar tipidagi aholi punktlarining aksariyati ishlab chiqarish salohiyati va tegishli infratuzilmaga ega emasligi jihatidan zaifligini hisobga oladigan bo‘lsak, bu tarzdagi sun’iy o‘zgarish muammoning y echimi topildi degani emas.

Binobarin, respublikada urbanistik tizimning yuqori bosqichi hisoblangan shahar aglomeratsiyalari shakllanishi uchun omillar ayniqsa Farg‘ona vodiysida yetarli ekanligini ham e’tirof etish lozim. Chunki, vodiy shaharlar atrofidagi qishloqlarning yaqin joylashganligi, ular bilan bevosita qo‘shilib ketganligi hamda shaharlarning zich joylashganligi bilan ajralib turadi. Masalan, shaharlar joylashuvi respublika miqyosida har 1000 kv. km-ga o‘rtacha 0,5 shahar to‘g‘ri kelsa, bu ko‘rsatkich Farg‘ona vodiysida o‘rtacha 2,2 shaharga tengdir. Agar bu ko‘rsatkichni vodiy viloyatlari kesimida ko‘radigan bo‘lsak, ular o‘rtasida ham nisbatan katta farq mavjud ekanligini kuzatish mumkin. Chunonchi, bu ko‘rsatkich Andijon viloyatida - 3,6 ga teng bo‘lsa, Namanganda esa 1,6 ga to‘g‘ri keladi. Qolaversa, respublikada 100 mingdan kishidan ortiq aholiga ega bo‘lgan 17 shaharning 5 tasi ya’ni 30% vodiyda joylashgan.

Farg‘ona vodiysida respublikada yagona bo‘lgan politsentrik shahar aglomeratsiyasi joylashgan. Muhimi shundaki, O‘zbekistonda urbanizatsiya jarayonidagi bunday xususiyat faqat ikki joyda kuzatilgan bo‘lib, birinchisi monotsentrik aglomeratsiya-Toshkent shahri hisoblanadigan bo‘lsa, politsentrik ko‘rinishida Farg‘ona-Marg‘ilonga hosdir. Bunda aholi yashaydigan hududlarning yaqindagi, aholining mehnat qilish uchun shahar atrofidan shahar markaziga

borishi qulayligi bilan ajralib turadi. Xususan, Toshkent aglomeratsiyasida 60% shahar va 40% qishloq aholisi, Farg‘ona-Marg‘ilon aglomeratsiyasida 50% shahar aholisi va 50% qishloq aholisi yashashi qayd etilgan. Agar, 2004 yildan yuqori sur’atlar boshlangan iqtisodiy rivojlanish davom etadigan bo‘lsa, shahar aglomeratsiyalarining soni vodiy xududi bo‘yicha yanada ortish ehtimoli bor. Masalan, kelajakda Andijon, Namangan va Qo‘qon shaharlari monotsentrik aglomeratsiyalari markazlariga aylanishi mumkin.

Uchinchi xususiyat millatlararo munosabatlardagi o‘ziga xos jarayonlar bilan bog‘liq. Farg‘ona vodiysi viloyatlari, o‘zbek xalqi vakillari son jihatidan ustunlikka ega bo‘lsa-da, vodiy azaldan respublikaning ko‘p millatli hududlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa XX asr o‘rtalarida mustabid tuzum tomonidan o‘z vatanidan quvg‘in qilingan koreyslar, qrim-tatarlari, mesxeti turklari, chechen, qorachoy kabi millatga mansub xalqlarning bir qismi vodiyga joylashtirilishi, usiz ham vodiy aholisining zichligi natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy keskinlikni yanada kuchaytirdi[11].

Mustaqillik sharoitida etnik munosabatlar sohasida olib borilayotgan izchil va qatiy siyosat tufayli O‘zbekistonda millatlararo totuvlik qaror topdi. Hozirgi kunda ushbu xududda o‘zbeklardan tashqari 1 mln.ga yaqin tojik, qirg‘iz, rus, tatar, qoraqalpoq va boshqa o‘nlab millat vakillari istiqomat qiladi, ular vodiy aholisining deyarli 15% ni tashkil qiladi. Xususan, 2014 yilga kelib Andijon va Farg‘ona viloyatlarida 100 dan ortiq, Namanganda esa 50 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilishi statistik organlar tomonidan qayd etilgan.

Shunday qilib, aytish mumkinki, Farg‘ona vodiysida ikki asr bo‘sag‘asida ijtimoiy keskinlikning klassik ko‘rinishi shakllanganligini ko‘rish mumkin. Demografik omil ta’sirida aholining ko‘payishi ularning zich joylashuvi, ortiqcha mehnat kuchlari jamlanishi va ishsizlik muammosining keskinlashuviga, yerning yetishmasligiga sabab bo‘ldi. Yuqorida sanab o‘tilgan Farg‘ona vodiysiga xos va bir-biriga uzviy ravishda bog‘liq bo‘lgan bu xususiyatlar sovet tuzumi

[11] Ahmedov E. A. O‘zbekiston shaharlari. –Toshkent: O‘zbekiston, 1991. – B. 21.

yillarida «pishib yetilgan» siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy holatning umumiy ko‘rinishi bo‘lib, hozirga davrgacha davom etib kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazib kelmoqda.

## 1.2. Mustaqillik yillarida Farg‘ona vodiysi shaharlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlari

Farg‘ona vodiysining har bir viloyati, butun yurtimiz tarixi kabi o‘zining boy tarixiy merosi, ijtimoiy-iqtisodiy saloxiyati bilan mamlakatimizda o‘ziga xos o‘ringa ega. Chunki, bu zaminning tarixi xam, buguni xam fozilu-fuzalolarga, ijodkoru san’atkorlarga boy. Darhaqiqat shunday ekan, albatta, uning bugungi kuni, aniqrog‘i uning yaxlit tarixini O‘zbekiston davlat mustaqilligi yillarida ijtimoiy hayotining barcha sohalarida amalga oshirilgan islohotlar natijasi, bu boradagi tarixiy tajribasiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu jixatdan vodiy viloyatlarining mamlakatimiz davlat mustaqilligi yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy rivoji haqida ba’zi mulohazalar bilan o‘rtoqlashmoqchimiz. Mamlakatimizning barcha hududlarida bo‘lganidek, istiqlol yillarida viloyatlar, shaharlar, tumanlar, qishloqlar tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib bormoqda. Yangi qurilgan inshootlar, uy-joylar, bozorlar, guzarlar, ravon yo‘llar ularning chiroyiga-chiroy qo‘shmoqda. Bular, albatga istiqlol yillarida amalga oshirilgan islohotlarning, avvalo, inson manfaatlarini ko‘zlab, uning turmush darajasini yaxshilash uchun amalga oshirilgan isloxotlar natijasi deyish mumkin. Bularni har birimiz o‘z viloyatimiz misolida ko‘rib his qilib turibmiz[12].

Avvalo, aytish joizki, nima uchun bugun yurtimiz mustaqillik davri tarixiga doir masalalar g‘oyat dolzarb. Biz ma’ruzalarda, maqolalarda keyingi 24 yil mobaynida asrlarga tatigulik ishlar amalga oshirildi, deb ko‘p aytamiz. Lekin bunday o‘zgarishlar nimalar evaziga qanday omillar natijasida yuz berdi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar natijasida mamlakatimiz iqtisodiyotida tub o‘zgarishlar yuz berdi. Bu borada ayniqsa, istiqlolning dastlabki yillari o‘zining salmog‘i va salohiyati bilan ajralib turadi. Bu yillarda katta markazlashgan ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan xo‘jalik yuritishning ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor munosabatlariga asoslangan yo‘liga o‘tish, ishlab chiqarish tarkibini o‘zgartirish, ya’ni respublikamizni xom ashyo, mineral resurslar ishlab

[12] Andijon tarixidan lavhalar / Ma’sul muharrir: P Isroilov. –Andijon: Andijon nashriyot matbaa, 2008. – B. 60.

chiqaruvchi xududdan, tayyor mahsulotlar sotiladigan bozordan hozirgi kun talabidagi yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqaradigan hududga aylantirish, yangi sanoat tarmoqlarini vujudga keltirish, yuksak texnika va texnalogiyalarni joriy qilish, mineral resurslarni qayta ishlash tarmoqlari tizimini yuksaltirish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish, aralash, ko‘p tarmoqli iqtisodiyotni vujudga keltirish yo’lida kichik va ommaviy xususiylashtirish amalga oshirildi va shu asosda yangi mulkdorlar sinfini shakllantirish jarayoni boshlab yuborildi. Xullas, mustaqillikning eng qiyin va o‘ta mas’uliyatli bo‘lgan dastlabki yillari - o‘zbek xalqi hayotida alohida ahamiyat kasb etdi. Mamlakatimiz tarixida muhim o‘rin tutgan bu davri tavsiflab I.A.Karimov shunday degan edi: «o‘tgan davrning har bir yilini ahamiyati jixatidan tariximizning o‘n yillariga, xatto asrlariga tenglashtirish mumkin, desak mubolag‘a bo‘lmaydi»13.

Bu jarayonda respublikamiz shaharlarida, xususan, mamlakatmizning aholi eng zich joylashgan mintaqasi bo‘lgan Farg‘ona vodiysi shaharlarida amalga oshirilgan ishlar muhim ahamiyat kasb etdi. Hozirgi kunda Farg‘ona vodiysi viloyatlarida 55 ta katta va kichik shaharlar hamda shahar turkumidaga qo‘rg‘onlar mavjud bo‘lib, ular orasida eng yiriklari Namangan, Andijon, Farg‘ona, Qo‘qon, Marg‘ilon shaharlaridir. Butun respublikada bo‘lgani kabi Farg‘ona vodiysi shaharlarida xam bozor munosabatlariga o‘tish Prezident I.A.Karimov taqdim etgan «o‘zbek modeli» asosida, bozor iqtisodiyotining umumiy qonuniyatlariga qat’iy rioya qilgan xolda amalga oshirila borildi.

Farg‘ona vodiysi shaharlarida iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar ikki yo‘l bilan: birinchisi, mavjud korxonalari texnik jixatdan qayta qurollantirish hisobiga, ikkinchisi, yangi korxonalar qurish yo‘li bilan amalga oshirildi. Yangi korxonalar barpo etish, ishlab turgan korxonalarni qayta jixozlash xalqimiz uchun zarur bo‘lgan ko‘plab iste’mol mollari ishlab chiqarish evaziga bajarildi. Xalq istemoli mollari ishlab chiqarish, iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘lik bo‘lib,

[13] Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – B. 40.

Farg‘ona vodiysi shaxarlari uchun alohida ahamiyatga ega edi. Chunki yillar davomida bir tomonlama rivojlanish natijasida vodiy zavod va fabrikalarida ishlab chiqarilgan tayyor xalq iste’mol mollari salmog‘i umumiy maxsulot xajmiga nisbatan juda oz bo‘lib, aholi talabini mutlaqo qondirmasdi. Axoli uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat. Xalq iste’moli mollari asosan, Ittifoqning boshqa respublikalaridan keltirilar edi. Masalan, sho‘ro tuzumi davrida Andijon shahri aholisining ularga bo‘lgan extiyojlarin faqat 15% viloyat imkoniyatlari evaziga, O‘zbekistonning boshqa viloyatlari xisobiga esa faqat 25% qondirilar edi. Qolgan 60% esa Rossiya, Ukraina, Belorussga, Boyatiqbo‘yi va boshqa respublikalar hisobiga to‘g‘ri keladi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish joiz, mustaqillikning dastlabki yillari mamlakatimizning boshqa viloyatlari, shaharlari kabi Farg‘ona vodiysi shaharlari uchun, uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun o‘ta murakkab davr bo‘ldi. Ittifoqning parchalanib ketishi, yillar davomida shakllangan iqtisodiy aloqalarning deyarli uzilishiga olib keldi. Moddiy-texnika ta’minoti, o‘zaro bank hisob-kitoblarining murakkablashganligiga shahar xalq xo‘jaligi tarmoqlarining rivojlanishiga jiddiy to‘siq bo‘ldi. Aloqalar uzilishi natijasida vodiy shaxarlaridagi bir qator korxonalar qisqartirilgan holda, ayrimlari esa butunlay ishlamay qo‘ydi, ishchi va xizmatchilar majburiy-ta’tilga chiqarilib ishsizlar safiga qo‘shildi[14].

Yuzaga kelgan bu axvol natijasida, birinchidan, aholi orasida ishsizlikning ortib borishiga, ikkinchidan, xalq iste’mol mollarining taqchilligiga, magazin peshtaxtalarining bo‘shab qolishiga, uchinchidan esa, harid qilinadigan kerakli iste’mol mollarining yo‘qligi pulning qadrsizlanib borishiga olib keldi. Bu salbiy xususiyatlar, ayniqsa Farg‘ona vodiysi shaxarlarida respublikaning boshqa shaharlariga nisbatan ancha jiddiyrok tus oldi.

Islohotlar jarayonida bozor iqtisodi tomon qo‘yilgan jiddiy qadam narxlarda erkinlashtirish bo‘ldi, chunki bozor narxlariga amal qilish iqtisodning muhim sharti edi. Bu tadbir ham «O‘zbek modeli»dagi islohotlarni asta-sekin, bosqichma-

[14] Abdullaev O. Namangan viloyati (tabiati, aholisi, xo‘jaligi). –Namangan: Namangan viloyati hokimiyati noshirlik bo‘limi, 1995. – B. 50.

bosqich o'tkazish qoidasiga tayandi. 1992 yildan e'tiboran texnikaviy tovarlar va ayrim iste'mol tovarlarning kelishilgan (erkin) narxlariga o'tildi, ammo eng zarur iste'mol mollariga dotatsiyalangan narxlar saqlansada, ularda sotiladigan tovarlar ro'yxati qisqartirilib borildi.

Sanoat korxonalariga erkin faoliyat ko'rsatish uchun keng yo'l ochib berilishi va narxlarning erkinlashtirilishi korxonalar taqdiri ularning rahbarlari va muxandis-texnik xodimlarining tashabbuskorligi, tadbirkorligi va ishbilarmonligiga bog'liq qilib qo'ydi.

Farg'ona vodiysi shaharlarida joylashgan korxonalar respublika sanoatning qariyb barcha tarmoqlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lib, ular foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash, mashinasozlik, elektrotexnika, neft va gaz, kimyo, to'qimachilik, qurilish industriyasi, xalq iste'mol mollari, oziq-ovqat, konserva va vino mahsulotlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. 1990 yilda bunday korxonalarning Andijon viloyati shaharlarida 169 tasi, Farg'ona viloyati shaharlarida 727 tasi, Namangan viloyati shaharlarida 102 tasi mavjud edi[15].

Iqtisodiy aloqalar izdan chiqqan, sifat jihatidan yangi bozor munosabatlariga o'tish, chetdan tayyor mahsulot keltirishning qiymati tobora oshib borayotgan bir paytda izlanishlar va imkoniyat qidirish asosida ishlash muhim ahamiyatga ega bo'lib bordi. Masalan, Andijon shaharda 46 ta sanoat korxonalaridan 43 tasida xalq istemoli mollari ishlab chiqarish amalga oshirildi. Boshqa tarmoqlarga qarashli 12 tashkilot ham aholi uchun zarur bo'lgan tovarlar ishlab chiqara boshladi. Shahar bo'yicha jami 744 xildagi iste'mol mollari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, ularning 581 tasi oziq-ovqat mahsulotlari edi. Namangan viloyatidagi shaxarlar sanoat korxonalarida amalga oshirilgan tadbirkorlik natijasida, 1994 yilga kelib, sobiq Ittifoq davrida chetdan keltirilgan 20 ga yaqin sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

---

[15] Alimova D.A. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yy). –Toshkent: SHarq, 2002. – B. 216.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida Farg‘ona vodiysi shaharlarida ham iste’mol mollari ishlab chiqarishga alohida e’tibor berildi. Bu borada Farg‘ona shahar hokimliga o‘zining iqtisodiy islohotlar dasturini yaratdi. Dasturda belgalangan tadbirlarni amalga oshira borib, 1992 yilda shahar sanoat korxonalari tomonidan 4.5 mlrd. so‘mlik, 1993 yilda esa 52 mlrd. so‘mlik xalq iste’moli mollari ishlab chiqarildi. 1994 yidan islohotlarning ikkinchi bosqichiga o‘tildi va iqtisodda chuqur tarkibiy siljishlar yuz bera boshladi. Avval mustamlaka harakteri bo‘lgan iqtisod mulkiy manfaatlarni ko‘zlagan xolda qaytadan tiklandi. Ishlab chiqarishdan tarkibiy o‘zgarishlar davlatning faol ishtirokida amalga oshiriladi. Bu jarayonda davlatning investitsiya siyosati muxim ahamiyat kasb etdi. Kerakli tarmoqlarga davlatning kapital mablag‘lari yuborildi, shuningdek, xorijiy mamlakatlar mablag‘larining katta qismi ham safarbar qilindi. O‘zbekiston xalq xo‘jaligiga joylashtirilgan kapital mablag‘lar 1994 yilda - 14,1 mlrd. so‘mni, 1995 yilda - 88,9 mlrd, so‘mni, 1996 yilda - 176,7 mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bu mablag‘lar yangi korxonalarni qurib ishga tushirish, eskilarini yangi texnika bilan qayta jihozlashga sarflandi. Bu ayniqsa, Farg‘ona vodiysi shaharlarida barpo qilingan «O‘zDEUavto», «O‘zDEU tekstil» kabi bir qator qo‘shma korxonalar va hissadorlik jamiyatlari timsolida yaqqol ko‘zga tashlandi[16].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov 1992 yil iyun oyida Janubiy Koreya Respublikasiga qilgan rasmiy tashrifi chog‘ida ikki davlat o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish to‘g‘risidagi dastlabki hujjatlarni imzoladi. Shu yilning avgust oyida esa Janubiy Koreya Respublikasi bilan hamkorlikda O‘zbekisgonda avtomobil ishlab chiqaruvchi qo‘shma korxona barpo etish to‘g‘risida kelishib olindi.

Korxonani tashkil etish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1992 yil 5 noyabrda «Selxozmash» konserni va «DEU korporeyshn»

[16] Farg‘ona vodiysi yangi tadqiqotlarda” mavzuidagi Respublika ilmiy anjuman materiallari. –Farg‘ona, 2009. 18 may. – B. 116.

korporatsiyasi bilan hamkorlikda avtomobillar ishlab chiqaruvchi «O‘zDEUavto» qo‘shma korxonasi tashkil qilish to‘g‘risida maxsus qaror qabul qildi.

O‘zbek mashinasozligi mustaqillik maxsuli bo‘lib, u 1993 yilning mart oyida «O‘zDEUavto» nomi bilan ro‘yhatdan o‘tkazilib, Andijon viloyatining Asaka shaxridagi pritseplar ishlab chiqarish korxonasi negizida tashkil qilinishi hamda bu muhim inshoot qurilishiiing boshlanishi bilan O‘zbekistonda avtomobilsozlik sanoatiga asos solindi.

1996 yil 16 iyulda Andijonda katta tantana bo‘ldi Asakadagi «O‘zDEUavto» korxonasidan birinchi yengil «Neksiya» avtomashinasi ishlab chikarildi. Bu nafaqat mamlakat iqtisodiyotidagi yangilik, balki O‘zbekiston tarixidagi muxim voqea edi. Bu bilan O‘zbekiston jahonda avtomobil ishlab chiqaruvchi 28-chi mamlakatga aylandi. Shu yili agar 24 ming 300, 1997 yilda esa 64 ming 300 yengil avtomobil ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2011 yidda bu ko‘rsatkich 230 mingtaga etdi.

Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimizda xalq xo‘jaligining butunlay yangi sohasi bo‘lmish avtomobil sanoatiga asos solgan bu zavod O‘zbekiston tanlagan siyosiy, iqtisodiy isloxotlar to‘g‘riligini, «O’zbek modeli» ijobiy natijalar bera boshlaganini tasdiqladi.

Farg‘ona vodiysi iqtisodiyotida amalga oshirilgan bunday ilg‘or tarkibiy o‘zgarishlar strategik jihatdan muhim maqsadni hal qilishga imkon yaratadi. Natijada vodiy shaharlari sanoat ishlab chiqarishida tayyor mahsulotlarning ulushi 1990 yilgi 34% dan 1996 yilda 68.5% g‘a ko‘paydi, respublikamiz bo‘yicha esa nisbat 35 va 65,5% i tashkil etdi.

Umuman, o‘tish davri qiyinchiliklariga qaramay vodiy shaharlaridagi sanoat korxonalarining iqtisodiy tanazzuli oldi olinib, ularning ishlab chiqarishdagi faoliyatni yangi yo‘nalishga solishga muvaffaq bo‘lindi, Shuningdek, bozor munosabatlariga o‘tishning birinchi bosqichida Farg‘ona vodiysi shaharlarida aralash ko‘p tarmoqqa iqtisodiy shaklanishiriga amalga oshirildi, ishlab chiqarishda strukturaviy o‘zgarishlar

qilindi, ya'ni qishloq xo'jaliga xom ashyosi va mineral resurslarni chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish borasida ma'lum siljishlarga erishildi. Shaharlar iqtisodiyotining asosi hisoblangan ishlab chiqarishdagi tarkibiy o'zgarishlar natijasida bir qator korxonalar ilmiy-texnika taraqqiyotining yangi g'oyalari asosida qayta jihozlantirishdi, zamonaviy texnologiyalar joriy etildi, yangi korxonalar qurib ishga tushirildi. Ayniqsa, respublikaning aholi zich joylashgan xududi bo'lgan Farg'ona vodiysining o'rta va kichik shaxarlarida yangi korxonalarni barpo etilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi istiqlolning dastlabki kundaridanoq jahonning yirik xalqaro tashkilotlari bilan teng xuquqli asoslarda xamkorlik yo'lini tanladi. Chunki hozirda keng miqyosdagi globallashuv, integratsiyalashuv jarayonlari kechayotgan bir davrda xalqaro hamjamiyat bilan ko'p tomonlama aloqalarga kirishish davr taqozosi bo'lib qolmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy - ijtimoiy isloxotlar amalga oshirishda xalqaro tashkilotlar loyixalarining ham o'rni bor, Shunday yirik loyixalarni amalga oshirishda ko'maklashayotgan nufuzli xalqaro tashkilotlardan biri bu - Yevropa Ittifoqidir. O'zbekiston Respublikasini Yevropa Ittifoqi bilan hamkorligiga turli yo'nalishlar, dastur va loyihalar asosida rivojlanib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi va EI o'rtasida 1992 yilda memorandum qabul qilingan vaqtdan boshlab, ta'sis dasturi o'z faoliyatini boshlagan. Ta'sis bo'yicha 1992 yil O'zbekiston Respublikasiga 1,78 mln so'm, 1993 yilda ekyu ajratildi. Ta'sis dasturi loyihalari O'zbekistonning barcha viloyatlarda amalga oshirilmoqda. Shu jumladan Farg'ona viloyatida ta'sis dasturi doirasida qiska 1992-1997 yillarda ikki loyiha amalga oshirildi. Birinchi loyixa xususiy fermerlarni qo'llab-quvvatlash va himoyalashga bag'ishlangan loyiha «Farg'onada menejmentga o'qishni takomillashtirish» deb nomlandi. Farg'onada menejmentga o'qitish loyihasi 1996 yil oktyabrda boshlangan bo'lib, Farg'onadagi ikki oliygoh - Farg'ona davlat universiteti va Farg'ona politexnika insitituti professor-o'qituvchilarni malakasini oshirish, «EM-BI-EY» xalqaro dasturi asosida o'qishdan iborat bo'ldi. Loyihadan

ko'zlangan maqsad FDU qoshida «Menejmet» Oliy maktabini ochish, kitob va boshqa zaruriy qo'llanmalar bilan ta'minlashni ko'zda tutgan.

Ta'sis dasturi negizida 1992-1997 yil davomida respublikamizda 80 ta yirik loyihalar amalga oshirib, 73 mln Ekyu (79 mln AQSH dollari) mablag' sarflandi. Qishloq xo'jaligi, ayniqsa, fermer xo'jaliklarini rivojlantirish davlatimiz siyosatining ustivor sohalardan biri hisoblanadi. Buni yana bir tasdig'i sifatida Prezidentimiz tomonidan 2009 yilni «Qishloq farovonligi va taraqqiyoti yili» deb e'lon qilinishida xam ko'rishimiz mumkin. Ushbu sohani rivojlantirish maqsadida EI ning tasis dasturi negizida Farg'ona viloyatida bir nechta loyihalar amalga oshirdi. Shunday loyixalardan biri «Qishloq xo'jaligani rivojlantirish» bo'yicha bo'lib maqsad Andijon, Farg'ona, Namangan viloyatlarida fermerlar, dehqon xo'jaliklari bilan yaqin hamkorlikni yo'lga qo'yishni takomillashtirish edi[17].

O'zbekistonda tasis dasturi doirasida 1997 yil 1 iyulgacha amalga oshirilgan loyihalar sifatida Farg'ona viloyatida qishloq va suv xo'jaligi vazirligi bilan hamkorlikda hududda faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklarida yangi texnologiyalarni joriy qilish, shu sohada mexnat qilayotgan mutaxassislar malakasini oshirish borasida olib borilgan keng ko'lamli ishlarni e'tirof etish mumkin. Bundan tashqari, fermerlar Fransiyaning Marsel shahrida malakalarni oshirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Albatta, ko'rsatayotgan bu amaliy yordam, mamlakatimiz taraqqiyotida o'z samarasini bermoqda. Tasis dasturi asosidagi yana bir muhim loyiha 1998 yilda boshlangan «Davlat va Jamiyat qurilishi akademiyasida davlat xizmatchilarining malakalani oshirish» loyixasi bo'lib, 1999 yil iyungacha bo'lgan davrda amalga oshirildi. Bu Yevropa Ittifoqi komissiyasining tasis loyixlaridan biri bo'lib, ko'zlangan maqsad davlat va jamiyat qurilishi akademiyasini zamon talablari darajasida modernizatsiya qilish, uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish, texnik, metodik, inson resurslarni rivojlantirishga yordam ko'rsatishdan iborat bo'lgan. Loyihani amalga oshirishda 5 ta Yevropa muassasalari hamda Germaniya, Niderlandiya, Fransiya

[17] Ата-Мирзаев О., Гентшке И., Муртазаева Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. –Ташкент: Университет, 2002. –С. 18.

kompaniyalari ishtirok etdi. Germaniyaning OORA kompaniyasi, mamlakatdagi resurslari sohasida injeneriya energetika ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, transport, axborot tizimi sohalarida maslahat berishdan iborat bo‘ldi. Mahalliy boshqaruv sohasini isloh qilishda Niderlandiya munsipalitdar assosatsiyasi ko‘maklashdi. Huquq soxasini Germaniya boshqaruv va menejment sohalarini rivojlantirishga xissa qo‘shdi. Xullas, hozirda davlat va jamiyat qurish akademiyasi eng obro‘li dargoh bo‘lib, yiliga 150 kishi tamomlamoqda. Akademiya turli xalqaro tashkilotlar, AQSH, Fransiya, Germaniya, Angliya, Polsha va boshqalar bilan aloqa o‘rnatgan.

Mustaqillik yillarida jamiyatimizdagi yangilanish jarayonlarida olib borilayotgan islohotlar samarasini oshirish, zamonaviy bozor iqtisodiyotiga o‘tish iqtisodiyotimiz tarkibini o‘zgartirish, odamlarimizni ish bilan band qilish va shu orqali xalqimizning hayot darajasini ko‘tarish yo‘lida Namangan viloyatida ham qilinayotgan ishlarni ijobiy baxolash mumkin.

Shu yillarda mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olgan xolda tez o‘sayotgan axolini ish o‘rinlari bilan ta’minlash, shu maqsadda ichki imkoniyatlardan va chet el sarmoyalarini jalb qilish hisobidan yangi zamonaviy qo‘shma korxonalar barpo etish eng muhim va dolzarb masalaga aylandi.

Masalan, keyingi yillarda viloyat iqtisodiyotida salmoqli ulushga ega bo‘lgan «Popfen», «Namangan ichimligi», «Al-Jaxon», «Namangantekstil», «Silk-Road» kabi qo‘shma korxonalar tashkil etilib, ularni ishga tushirish uchun 200 million AQSH dollari miqdoridagi sarmoya o‘zlashtirildi. 1999 yilning o‘zida 76 million AQSH dollari miqdoridagi sarmoya sarflanib, «Kosonsoy-Tekmen» qo‘shma korxonasini qurib, ishga tushirilishi buning yaqqol tasdig‘idir. 2000 yilda Namangan sut zavodi negizida Shvetsariyaning «Nestle» kompaniyasi bilan birgalikda loyixa qiymati 30 million AQSH dollariga teng bo‘lgan bolalar oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaradigan qo‘shma korxona ishga tushdi. Bu sog‘lom avlodga g‘amxo‘rlik qilish yo‘lidagi muhim amaliy qadam bo‘ldi.

Albatta, bunday zamonaviy korxonalar bunyod etilishi evaziga biz nimalarga erishdik avvalo, aytish joizki, mamlakatimiz sanoati rivojlangan davlatga aylanib, uning iqtisodiy salohiyati oshib, eksport quvvati tobora ortib bormoqda. Mana shunday zamonaviy industrial korxonalar bunyod etishga qodir xalqimizdagi fidoiylikni tag-zamirida, uning oʻzi asrlar osha orzu qilib, qoʻlga kiritgan davlat mustaqilligini ximoya qilgan, asrab-avaylash, uni mustahkamlash xis-tuygʻusini borligi deb bilamiz Bu boradagi tarixiy tajribani oʻrganish, ilmiy tahlil qilish biz tarixchilarning burchimizdir Zero, xalq tarix yaratuvchisidir. Shu oʻrinda xalqimizni bunday bunyodkorlikka safarbar qilish, yoʻnaltirish bilan bogʻliq yana bir omil haqida xam bugun gapirsak adolatdan boʻlar edi. Bu davlatimiz rahbari va xukumatimiz tomonidan mamlakatimizning barcha mintaqalariga koʻrsatilgani kabi Fargʻona vodiysi viloyatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga xam doimiy e’tibor berib, gʻamxoʻrlik koʻrsatilganini aloxida ta’kidlash kerak.

Oʻzbekistonda tasis doirasi maxsus markazlar tashkil qilgan boʻlib, Oʻzbekiston Respublikasi «biznes-fond» tovar ishlab chiqarish va tadbirkorlar patatasi ishbilarmon yoshlar Respublikasi assosiatsiyasi tashabbusi bilan «Yangi texnologiyalar markazi» tashkil etildi. Bundan maqsad mamlakatimizda kichik va oʻrta biznesni rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish koʻzda tutilgan. Ushbu markaz Yevropa talablari darajasidagi auditoriyalar, komp’yuter zali va zamonaviy kutubxonaga ega. Qisqa davrda Angliya va Italiyadan kelgan mutahassislar, bozor iqtisodiyoti va uni rivojlantirish boʻyicha bir necha darslar tashkil qildilar. Darslarda Respublikamizning turli viloyatlaridan, jumladan, Andijon, Fargʻona, Namangandan qatnashgan 130 ta mutaxassislar shu sohadagi bilimlarini boyitdi. Markaz oʻqituvchilari horijlik mutaxassislar bilan xamkorliqda biznes, iqtisodiytga oid oʻquv metodik qoʻllanmalar yaratdilar.

1996 yil sentyabrdan Samarqand va Farg‘ona viloyatlarida maxsus MVA kursi o‘tkazilib kelinmoqda, unda mutaxassilarni (biznes, kishloq xo‘jaligi, fermerlik ) maxsus metodikalar asosida o‘qish yo‘lga qo‘yilgan[18].

Albatta, bu amalga oshirilayotgan loyihalar orasida samarali natija ko‘rsatishlari anchagina. Yevropa Ittifoqining O‘zbekistondagi muvofiqlashtiruvchi texnik yordam byurosi maslaxatchisi Mark Dyujssel fikricha 1997 yil oktyabrda yakuniga yetgan « Xususiy fermer xo‘jaliklarni qo‘llab quvvatlash» mavzusida o‘tkazilgan seminar mashg‘ulotlari amaliy natija berdi. Loyiha asosan, fermerlik imkoniyati, shart-sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan bo‘lib, loyiha ko‘lami ikki viloyat - Sirdaryo va Farg‘onani qamrab oldi.

EI loyihalari nafaqat boshqaruv, qishloq xo‘jaligi, kichik va o‘rta biznes sohalarni qamrab olgan, balki oliy ta’lim tizimi yo‘nalishida ham aloqalar yo‘lga qo‘yilgan. Tasis dasturi negizida faoliyat boshlagan Tempus loyihasi Yevropa davlatlari oliy o‘quv yurtlari bilan yurtimiz oliygohlari o‘rtasidagi aloqalarni amalga oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi taklifi va tashabbusi bilan Tempusninig Axborot kunlari har yili turli viloyatlarda o‘tkaziladi. Masalan, 2003 yilning 10 noyabrida Farg‘ona shaxridagi oliy o‘quv yurtlari uchun Farg‘ona politexnika institutida, 11 noyabrida Namangan shaxridagi oliy o‘quv yurtlari uchun Namangan muhandislik - pedagogika institutida, 12 noyabrida Andijon qishloq ho‘jalik institutida xuddi shunday kunlar bo‘lib o‘tdi. Shuni aytish kerakki, xozirgi kunda Tempus dasturi faoliyatida oliy o‘quv yurtlaridan tashqari qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, bir qator boshqa tashkilotlar va muassasalar ham ishtirok etmoqda.

Xalqaro aloqalar nafaqat iqtisodiy - ijtimoiy soha balki madaniy sohalarda xam amalga oshirilmoqda. 1996 yil 5 dekabr kuni «Bahor» konsert zalida GFR madaniyati kunlarining rasmiy ochilish marosimi tashkil etildi. Shu yilning sentyabr oyidan boshlanib dekabriga qadar davom etgan madaniyat kunlarida nemis yoshlari

---

[18] O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalari: asosiy yo‘nalishlari va yondashuvlar // Respublika yosh olimlarining birinchi ilmiy konferensiyasi materiallari to‘plami. –Toshkent., 2009. –B. 35.

filarmoniyasi, Georg Glazl nomidagi Bavariya kamera musiqa ansambli, «Zinger Pur» vokal ansambli, «M. Vokingonze vota» rok guruhining konsertlari, Ketgurket plastika va qo‘g‘irchoq teatrining spektakllari organ cholg‘uchisi M.Shenxaytning chiqishlari, Germaniya kinosining namoyishi va uning vakillari bilan uchrashuvlar, nemis adabiyotiga bag‘ishlangan seminarlar tashkillashtirildi. Shuningdek, Davlat san’at muzeyi va A.Navoiy nomidagi davlat kutubxonasida ko‘rgazmalar namoyishi, o‘zbek va nemis sharqshunoslari, etnograflari hamda ekologlarining o‘zaro uchrashuvlari tashkil etilgan. GFR madaniyatlari kunlari Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona va Nukus shaharlari doirasida o‘tkazildi.

Prezidentimizning har "bir viloyatga tashrifi o‘sha viloyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida va tarixida muxim voqea. Masalan, 2009 yil 2 iyulda Prezidentimizning Namanganga tashriflaridan so‘ng, viloyat ijtimoiy-iqtisodiy xayotiga doir 3 ta farmoyish va qaror qabul qilindi. 2011 yil 1 oktyabrda Andijonga tashriflaridan so‘ng esa viloyatning 2015 yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi to‘g‘risida, 2011 yil 6 oktyabrda Farg‘onaga tashriflaridan so‘ng, shu yil 15 noyabrda 2015 yilgacha Farg‘ona shaxrining infratuzilmasini yaxshilash bo‘yicha maxsus qaror qabul qilindi. Bu qarorlarda Andijon, Farg‘ona, Namangan viloyatlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda respublika miqyosida hamda joylardagi ijro organlari tomonidan bajariladigan vazifalar belgilandi va aloxida Dasturlar qabul qilindi. Bir so‘z bilan aytganda, bu viloyatlarning har birini rivojlantirish umumdavlat, umumxalq ishiga aylantirildi va ushbu qarorlarda bitta g‘oya ya’ni «Ozod va obod Vatan qurish - pirovard maqsad» ekanligi aniq belgilab berildi[19].

Farg‘onalik shoir Oxunjon Hakimov «Xalq so‘zi» gazetasiga bergan intervyusida «Prezident qarorlarida belgilangan vazifalarni amalda bajarish vodiyni mamlakatimizning gavxariga aylantirardi», deb ta’kidlaganida jon bor.

Shunday qilib, yuqorida bayon qilingan fikr-mulohazalardan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, mamlakatimizda, xususan Farg‘ona vodiysi

[19] Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. -Toshkent: O‘zbekiston, 2000. – B. 78.

viloyatlari iqtisodiyotida zamonaviy texnologiyalar asosida faoliyat ko‘rsatayotgan qo‘shma korxonalarni tashkil qilish, ularning ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga qaratilgan tarixiy tajribalarni o‘rganish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish maqsadga muvofiq deb xisoblaymiz. Ayni vaqtda bunday tarixiy yo‘nalishda tadqiqotlarni izchil yo‘lga qo‘yilishi Prezident I.Karimovning «O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzurida O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha jamoatchilik Kengashi tashkil etish to‘g‘risida»gi qarorida belgilangan vazifalarni bajarish talablariga to‘la mos bo‘lgan bo‘lar edi deb xisoblaymiz.

Biz yuqorida vodiy viloyatlari ijtimoiy-iqtisodiy rivoji bilan bog‘liq choralar xaqida gapirdik. Bularni go’yo osongina yuz bergandek talqin qildik. Lekin biz tarixchilarning vazifamiz bu jarayonlar osonliqcha yuz bermaganini uni amalga oshirishdagi xalqimizning fidoiy mexnati yotganligini, mustaqillik xalqimizga o‘z saloxiyati, bilimi va qudratini amalga oshirish uchun qanday imkoniyat va sharoitlarga ega qilganini davlatimiz rahbari va hukumatimizning xalqimizning turmush darajasi va farovonligini ta’minlashga qaratilgan faoliyatini o‘rganishimizni tadqiq qilishimizni taqozo qiladi. Esimizda, mustaqilligimizning dastlabki davrida ayrim karomatgo‘ylar «Qani endi ko‘ramiz sizlar o‘zlaringni o‘zlaring boqa olasizlarmi, o‘zlaringni o‘zlaring boshqara olasizlarmi?» deb shubha bilan qaragan edilar. Biz xozirgina ko‘rib o‘tgan tarixiy voqea-hodisalar, faktlar ana shunday bashoratchilarning fikrlari asossizligini yaqqol ko‘rsatib, taraqqiyotning «O’zbek modeli» ko‘pchilik uchun namuna ekanligini isbotlab turibdi[20].

Umuman, O‘zbekistonning har bir hududi, mintaqasi tarixiga doir xox uzoq o‘tmish bilan xox eng yangi tariximiz bilan bog‘liq tarixiy tajriba bo‘lsin, uni atroflicha ilmiy o‘rganish, shu asosda yoshlarimizni tarix bilan qurollantirish, ularning ma’naviy yetuk, zamonaviy bilimga ega yoshlar qilib tarbiyalashimizda

[20] Karimov I.A. Asosiy maqsadimiz-yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo‘lini qa’tiyat bilan davom ettirishdir. -Toshkent: O‘zbekiston, 2007. – B. 148.

muhim axamiyatga ega. Zero, tarix bu millat tarbiyachisi ekanligi ham ana shunda deb bilamiz. Binobarin, tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Kecha bugun uchun, bugun esa erta uchun tarixdir. Ayni paytda o‘z oldiga qo‘ygan maqsadimiz ham mana shu xayotiy xaqiqat bilan bog‘liqdir.

# II BOB. MUSTAQILLIK YILLARIDA FARG’ONA VODIYSI SHAHARLARIDA MADANIY JARAYONLAR.

## 2.1. Mustaqillik yillarida Farg’ona vodiysi shaharlarida madaniy hayot

Yangi tarixiy davr ma’naviyat davri ma’rifatchilik davri sifatida vujudga kelmoqda. Milliy g‘oya asosida bosh islohotchilik vazifasini bajarayotgan davlat odamlar ongi, tafakkuri va qalbi orqali o‘tkazish yo‘lini tanladi. Ana shu yo‘l odamlarning moziyga bugunga kelajakka munosabatlarini o‘rganib, muayyan manfaatlarga yondoshish ruhiyatini yangilash orqali asta-sekinlik bilan ularni ma’rifatli komil inson, barkamol avlod qilib voyaga yetkazishga olib boradi. Fuqarolarning ma’rifatligi orqali ma’rifatli jamiyat barpo etiladi. O‘tmishni aniqlash, uni to‘g‘ri tushinish orqali kishilar ruhiyatida jiddiy o‘zgarishlar yasashga bu orqali hayotini, turmush tarzini, ohir-oqibatda esa jamiyati ma’naviy isloh qilishga erishildi.

Har qanday jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi ma’naviyat va ma’rifatdir. Ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalashda Vatan tarixi muhim omildir. «Ma’naviyat - deb yozadi Islom Karimov, - o‘z halqining tarixini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur bilish va tushunib yetishga suyangandagina qudratli kuchga aylanadi[21].

Xalqimiz asrlar osha orzu qilgan mustaqilllikka erishishda, mustaqillikni mustahkamlashda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni keng yo‘lga qo‘yish muxim ahamiyat kasb etadi. Zotan u kishilarimizni iymon-etiqodlik, fidoiylik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi va bu jonajon respublikamizni kelajagini buyuk qilishdek vazifani bajarishga xizmat qiladi.

Mustaqilligimiz tufayli yangicha ong va yuksak ma’naviyat uchun kurash chinakam davlat siyosatiga aylandi. O‘tgan yillar mobaynida bu yo‘nalishda ulkan qadamlar qo‘yildi. Xalqimizning ong va dunyoqarashi tubdan o‘zgarmoqda va bu jarayon tobora chuqurlashib, ma’naviy rivojlanishida yangi davonlarga intilmoqdamiz. Ma’naviyatimizni yuksaltirishda ziyolilarning katta o‘rni bor. Ular xalqimiz, xususan

[21] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch. -Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 78.

beg‘ubor yosh qalblarga ma’rifat, chin insoniylik, mexnatsevarlikni o‘rganmoqdalar. I.A.Karimov «Manaviyat va ma’rifatni joriy qilish har bir ziyolining vijdon ishidir»-deb takidlaydi. U yana «Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng biz soxta mafkuraning yakka hokimlikdan qutildik. Ma’rifatli-mafkurani zug‘umlardan ozod qilib, erkin fikrga milliy tafakkurga keng yo‘l ochdik. Endi asosiy vazifa kishilarimizni mustaqil fikrlashiga o‘rganildi, o‘ziga ishonchining orta borishidir. Chunki tafakkur ozod bo‘lmasa ong va shu tazyiqdan qutilmasa inson ozod bo‘la olmaydi».

Bugungi kunda mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda turizmni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan. O‘ndan ziyod qonun va boshqa me’yoriy hujjatlar qabul qilingan bo‘lib, turizm sohasi aynan ushbu qonunchilik tizimi doirasida amalga oshirilmoqda. 1995 yildan buyon «Buyuk Ipak Yo‘li» brendi doirasida Farg‘ona viloyatining Qo‘qon, Marg‘ilon, Quva, YAypan, Rishton singari qadim o‘tmishi, noyob madaniy yodgorliklari, milliy an’ana va qadriyatlari bilan mashhur shaharlarida tarixiy turizmni rivojlantirish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud bo‘lib, chet ellik mehmonlar uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar yaratilmoqda[22].

Mustaqillikga erishganimizdan so‘ng tarixiy yodgorliklarimiz, madaniy me’rosimizni muhofaza qilish, ularni ta’mirlash va zamonaviy maqsadlarda foydalanish yuzasidan salmoqli ishlar qilinib kelinmoqda. XX asrning 70-yillarida O‘zbekistonda 10 ta qadimiy shaharlar ro‘yhati tuzilgan edi va bu shaharlarda arslar davomida rivojlanib kelgan tarixiy markazlarni saqlash yuzasidan tadbirlar ishlab chiqilgan edi. Qadimiy tarixiy shaharlar ro‘yhatida Farg‘ona vodiysi shaharlaridan Qo‘qon shahri ham bor edi.

Mustaqillik yillarida Qo‘qonning ayniqsa eski shahar qismidagi tarixiy muhit o‘zgarib ketdi. Bu yerda Teatr maydoni yechimi misolida ijodiy yondoshilganini ko‘rish mumkin. Me’morlar eskicha usuldan voz kechganlar, u yerda

[22] Karimov I.A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011. – B. 14.

shaharliklarning dam olishi va sayillar qilishi uchun ko‘p- yoqlama kenglik sifatida hal etilgan. Maydonda amfiteatr, hovuzlar, choyxona joylashgan. Musiqali drama teatri va adabiyot  muzeyi maydon tuzilishining asosi hisoblanadi, ulardagi o‘ziga xos me’morchilik uslubi mahalliy manzara bilan hamohang. Maydon eski shahar uylari va joy muhitiga uzviy birikib ketgan.

Qo‘qon shahrida amalga oshirilayotgan qayta qurish ishlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2009 yil 15 dekabrdagi PP-1239 – sonli “Qo‘qon shahri infrastrukturasini va arxitekturaviy ko‘rinishini tubdan yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 4 avgustdagi 167-sonli “Qo‘qon shahri bosh planini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq amalga oshirilmoqda[23].

Shu maqsadda Qo‘qon shahrida quyidagicha ishlar amalga oshirilmoqda:

1. Shaharning shaharsozlik nuqtai nazaridan eng ahamiyatli nuqtasida tarixiy va jamoat markazlari belgilandi. Shuningdek shaharning markaziy qismida, ya’ni markaziy maydonlar hisoblanmish o‘rda, chorsu, ozodlik qismlarida zonalashtirish ishlari amalga oshirildi. Bu erda bolalar va yoshlar uchun alohida zona, sport inshootlari uchun alohida, shu bilan birga aholi dam olishi uchun ko‘kalamzorlashtirilgan zonalar va boshqalar ajratildi.

2. Shaharning tashqi arxitekturaviy ko‘rinishi qisqa vaqtlar ichida bu yerda keng miqyosda ko‘cha va maydonlarda olib borilgan bunyodkorlik, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari natijasida tubdan o‘zgardi.

3. Shaharning ijtimoiy infratuzilmasi rivojlantirildi va kompleks tarzda yechildi, shuningdek injenerlik tarmoqlar zamonaviy talablar asosida qaytadan ishlab chiqildi.

4. Shahar transport tizimi tubdan yangilandi. Avtomobil yo‘llari va chorrahalar rekonstruksiya qilinib kengaytirildi, keng 4-6 qator yo‘lli ko‘chalar barpo etildi.

[23] www.ziyonet.uz.

5. Shahar aholisining yashashi va dam olishi uchun qulay bo‘lgan muhit shakllantirildi. Tarixiylik va zamonaviylik uyg‘un tarzda rivojlantirildi.

Qo‘qon shahrini rekonstruksiya qilish jarayonida tarixiy-madaniy ob’ektlar va joylarni e’tiborga olish lozim edi. Shaharlarni rekonstruksiya qilish, uni yangilash esa zamonaviy vaqt talablaridandir. Chunki qadimgi yo‘llar hozirgi avtomobillarga mo‘ljallanmagan edi. Shunday bo‘lsada rekonstruksiya jarayonida shaharning asosiy tarixiy qiyofasini saqlab qolish dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Mutaxassislar tomonidan yaxshi o‘ylab chiqilmagan rekonstruksiya ishlari albatta tarixiy me’rosimizni saqlab qolishga qarshi chiqadi. Shu sababli tarixiy shaharlarimizni qayta rekonstruksiya qilishda ehtiyot bo‘lishimiz kerak. Prezidentimiz ta’kidlab o‘tganlaridek: “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”. Shu sababli tariximizni asrab-avaylash har birimizning muqaddas burchimiz bo‘lmog‘i lozim[24].

Tarixiy shaharlarni rekonstruksiya qilishda boy tajribaga egamiz. Buning isboti sifatida mamlakatimizning Samarqand, Toshkent, Shahrisabz, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlarida olib borilgan ishlarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Bu shaharlarda tarixiy va zamonaviy qismlar bir butun holda rivojlantirildi. Zamonaviy qurilishlar tarixiy ob’ektlar joylashishi va ko‘rinishidan kelib chiqqan holda loyihalandi.

Eski tarixiy shaharlar rekonstruksiyasida nafaqat alohida yodgorliklarni, balki qadimgi shaharlarning strukturaviy-sxematik yechimini, xarakterli qismlarini, ulardagi tarixiy muhitni ham saqlab qolishimiz kerak bo‘ladi.

Shaharlarni rekonstruksiya qilishning salbiy jihatlari ularni yetarli darajada o‘rganmaganligimiz natijasida kelib chiqishi mumkin. Shu sababli har bir tarixiy shaharni rekonstruksiya qilish jarayonida mukammal izlanishlar olib bormog‘imiz, o‘sha joy bo‘yicha to‘liq ma’lumotlarga ega bo‘lmog‘imiz darkor. Shundan keyingina rekonstruksiya loyihalarini ishlab chiqmog‘imiz lozim. Aks holda tarixiy shaharlar o‘z qiyofasini yo‘qotib boradi.

---

[24] Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. –Toshkent: Sharq, 1997. –B. 23.

Farg‘ona viloyatining eng yirik Qo‘qon shahri Qo‘qon xonligining poytaxti sifatida 1740 yilda qayta qurilgan. 2000 yillik tarixga ega 40 dan ziyod tarixiy yodgorliklariga ega. Bugungi kunda tarixiy yodgorliklarning ko‘pligi bo‘yicha respublikamizda Xiva, Buxoro, Samarqand kabi shaharlardan keyin 4-o‘rinda turadi.

Qo‘qon shahridagi tarixiy yodgorliklar asosan XVIII-XIX asrda bunyod etilgan, xonlik davri me’morchilik namunasidir. Qo‘qon shahri hukmdor qarorgohiga ega. Respublikamizdagi Xiva, Buxoro singari shaharlari qatorida o‘zining tarixiga ega. Qo‘qon shahri turizmni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarga ega bo‘lib, bugungi muhim vazifa bu yerda shart-sharoit yaratish, mehmonxonalar, kemping, xalqaro talablarga mos ovqatlanish shaxobchalarini bunyod etish, turistlar uchun an’ana va qadriyatlarni, xalq amaliy va badiiy san’atni ko‘rsatish, namoyish qilish orqali turistlarni jalb qilish darkor.

Marg‘ilon shahri - ipakchilik markazi sifatida dong taratganligi, atlas va adras tayyorlovchi yagona markaz bo‘libgina qolmay o‘zining noyob tarixiy yodgorliklari, buyuk alloma va ulamolari bilan ham mashhur. 2001 yili yurtimizda Marg‘ilon shahrining 2000 yillik yubileyi nishonlandi. Islom olamida islom huquqshunosligi asoschisi «Xidoya» asari muallifi Burhoniddin al-Marg‘inoniy tavallud topgan yurt sifatida ham mashhurdir. Rishton bugun kulolchilik markazi sifatida o‘zini ko‘z-ko‘z qilayotgan bo‘lsada, asli uzoq o‘tmishga ega qadimiy shaharlardan biri hisoblanadi. Rishton 9-10 asr tarixiy manbalarida Farg‘ona vodiysidagi shaharlardan biri sifatida aytib o‘tilgan[25].

Quva shahri ham kariyb 2000 yillik yoshga teng. Ushbu shahar qadimiy hunarmandchilik markazlaridan biri hisoblanadi. Jumladan bu shahar shishasozlik, kulolchilik, me’morchilik, temirchilik va boshqa hunar turlari rivojlanganligi bilan ham ajralib turadi. Quvada 5 asrga oid budda ibodatxonasi va budda haykali topilgan. Bugungi kunga kelib, Quva anor markazi sifatida ham dong taratgan. Quva anorlari respublikamizdan tashqarida ham mashhur. BMTning butunjaxon

---

[25] Marg‘ilon. Tahrir hayati: Solixov SH va boshqalar. –Toshkent: SHarq, 2007. –B. 22

sayyohlik tashkiloti hisob-kitoblariga qaraganda, bugungi kunda dunyoda eng serdaromad soha - bu turizm ekanligi, Malayziya, Janubiy Koreya, Xitoy, Misr, Gretsiya, Vatikan, Italiya, Ispaniya singari turizm rivojlangan davlatlar yalpi ichki mahsulotining 20% dan ziyodi turizm hissasiga to‘g‘ri kelishi bu sohanining qay darajada serdaromad soha ekanligini ko‘rsatib turibdi.

2008 yil boshlangan iqtisodiy krizis hali-xanuz davom etayotgan bir vaqtda 2015 yil Butunjahon sayyohlik tashkiloti hisobotida birgina shu yilning o‘zida 1 trillion 400 milliard dollardan ziyod mablag‘ o‘zlashtirilganligi, bu sohani iqtisodiyotning muhim sektorlaridan biriga aylanib borayotganligidan dalolatdir.

Farg‘ona viloyati hududida 112 ta arxeologik yodgorliklar davlat ro‘yxatiga olingan bo‘lib, ular Farg‘onaning qadim o‘tmishining tilsiz guvoxlaridir. Farg‘onada Qadimgi Xitoy manbalarida ham 70 dan ziyod shaharlari borligi to‘g‘risida ma’lumotlar keltiriladi[26].

Farg‘ona viloyatida turizmni rivojlantirish uchun malakali kadrlar bilan ta’minlash ham, turizm istiqbolida alohida ahamiyatga ega. Qo‘qon shahrida «Turizm va maishiy xizmat ko‘rsatish» kasb hunar kolleji 2014 yildan ishga tushirilishi, malakali kadrlar bilan ta’minlanib borilmoqda. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, Farg‘ona viloyati turistlarni jalb qilish borasida mavjud imkoniyatlar to‘liq ishga solinmaganligi tufayli, boshqa turizm rivojlangan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Urganch, Termiz, va Qarshi shaharlaridan ancha orqada qolayotganligini ko‘rishimiz mumkin.

Turizm iqtisodiyotning eng yetakchi sohalaridan biri bo‘lib, bu sohani rivojlantintirish shaharlar infratuzilmasini yaxshilanishiga, ko‘plab yangi ish o‘rinlari yaratilishiga, eng asosiysi, O‘zbekiston imidjini butun dunyoga olib chiqishga va xalqaro nufuzini oshishiga olib keladi. O‘zbekistonda turistlarni bir kunlik xizmatlar narxi minimal 36 dollarni tashkil etadi. Bu xizmatlar va mahsulotlar tannarxining

[26] Mannopov S. Marg‘ilon-madaniyat va sanoat markazi // Marg‘ilon shahri o‘tmishi, buguni va ertasi mavzusidagi respublika ilmiy seminar materiallari. –Farg‘ona, 2007. –B. 18.

arzonligi ham turistlarni mamlakatimizga oqimini ko‘payishiga sabab bo‘ladigan omillardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, milliy an’ana - qadriyatlarini qayta tiklash huquqiga ega bo‘ldi. Muqaddas islom diniga, xalkimiz ongidan o‘chirilib, unutilgan Imom al-Buxoriy, Zamahshariy, Termiziy, Marg‘iloniy singari ulamolarimizning nafaqat nomlari tiklandi, shu bilan birga xalqaro miqyosda va respublikamizda keng ko‘lamda yubileylari nishonlandi. Prezident I.A.Karimov «Biz bobolarimizning muqaddas dini bo‘lgan islom dinini qadrlaymiz, xurmat qilamiz, odamzod ruhiy dunyosida imon - e’tiqodini, insoniy fazilatlarni mustahkamlashda uning o‘rni va ta’sirini yuksak baholaymiz» deb ta’kidlagan[27].

Respublikamiz hududidagi 200 dan oshiq islom dini bilan bog‘lik respublika ahamiyatiga ega Buxoro, Samarqand, Urganch, Termiz, Qarshi, Toshkent singari shaharlarda muqaddas ziyoratgoxlar qayta tiklandi va shu bilan bir qatorda jahon iqtisodiyotining ajralmas qismi bo‘lgan ishlab chiqarish turizm turlaridan diniy turizmni yoki ziyorat turizmini rivojlantirish uchun O‘zbekiston Respublikasida keng imkoniyatlar ishga solindi.

Diniy turizm mavsum tanlamaydigan turlaridan biri bo‘lib, ma’lum dinga e’tiqod qiluvchi aholining diniy ziyoratgoxlar, diniy inshoatlar, diniy qadamjolarga ziyorati nazarda tutiladi. Diniy maqsadda sayohat qiluvchilarni soni xar yili jahon bo‘yicha 200 mlndan oshib bormoqda. Ularning ichida musulmonlar soni 5 mlndan oshiqni tashkil etadi. Islom olamida Makka, Madina, Samarqand, Buxoro, Urganch singari shaharlar bilan bir qatorda Farg‘ona viloyatidagi Qo‘qon, Marg‘ilon, Quva va Farg‘ona shaharlari diniy turizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega. Bundan tashqari har bir tumanlarda joylashgan ziyoratgohlar, diniy ulomolar, allomalar, aziz joylar va qadamjolarga ziyoratlar amalga oshirilmoqda.

[27] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch. -Toshkent: Ma’naviyat, 2008. –B. 57.

Farg‘ona vodiysida diniy turizmni rivojlantirish uchun universal imkoniyatlarga ega va istiqbolli hududlardan biri xisoblanadi. Farg‘ona vodiysi boy tarixiy merosi, an’ana va qadriyatlari, kuchli iqtisodiy salohiyati bilan davlatimizda o‘z o‘rniga ega hududlardan biridir. Diniy turizmni rivojlantirish nafaqat maxalliy xolatda shu bilan bir qatorda milliy darajaga ko‘tarish uchun ham katta imkoniyatlarga ega hududlardan biridir. Farg‘ona viloyatining Qo‘qon, Marg‘ilon, Rishton, YAypan, Quva, SHohimardon va boshqa hududlari tuprog‘ida hoklari yotgan aziz avliyolar, piri-komillarimizning ruhi-poklari doimo xalqimiz yodida va qalbida yashab kelmoqda. Xalqimiz azaldan o‘z ma’naviy qadriyatlari va diniy e’tiqodini yuksak qadrlab kelgan. Shuni inobatga olib, bu hududlarda diniy turizmni va ziyorat turizmini rivojlantirish, shaxardan uzoq ziyoratgohlarda Samarkand va Buxoro kabi turistik markazlari tajribasidan foydalangan holda xonodon mexmonxonalari tashkil etish va maishiy xizmat ko‘rsatish shohobchalarini tashkil etish orqali ziyoratchilarga xizmat ko‘rsatishni yaxshi yo‘lga qo‘yish kerak. Aynan shu tajribani Farg‘ona vodiysidagi ziyoratgohlarda ham yo‘lga qo‘yish orqali nafaqat iqtisodiy manfaatdorlik oshishiga, shu bilan bir qatorda yangi ish o‘rinlarini paydo bo‘lishiga olib keladi.

Avliyolar, payg‘ambarlarning, solih kishilarning mozorlarini ziyorat qilish islom dinining hanafiylik mazhabida savobli ishlardan hisoblanadi. Avliyolar dafn etilgan joylarni ziyorat qilish insonlar ruhiyatiga katga ta’sir ko‘rsatadi va u yerda ma’lum axloq normalariga amal qilish haqidagi qarashlar yoshlarni milliy an’ana va qadriyatlar ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Muqaddas joylarni ziyorat qilish insonlarni turli yomonliklardan va xurofotdan uzoqda yurishga insof-diyonatli bo‘lishga o‘zidan faqat yahshilik qoldirishga, hayrli ishlarga chorlagan. U yerda tarbiya odob-axloq, halollik va adolat singari insoniy qadriyatlari ulug‘lashga undab kelgan.

Mavjud ziyoratgoxlarni obodonlashtirish infratuzilmasini yaxshilash va rivojlantirish musulmon dunyosidagi nufuzini yanada oshirish mahalliy va xorijiy

fuqarolarni keng ko‘lamdagi ziyoratlarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish darkor.

Farg‘ona vodiysi Markaziy Osiyo xududida islom dini tarixini o‘rganishda ham muhim hududlardan biri xisoblanadi. Muqaddas ziyoratgoxlar o‘zbek xalqining milliy madaniyati, an’ana va qadriyatlarini o‘rganishda o‘ziga hos o‘ringa ega. 2002-2007 yillarda Yaponiyaning «Nara Ipak yo‘li tadqiqot markazi» va «Toyota» fondining homiyligida «Markaziy Osiyodagi islomiy muqaddas joylarni o‘rganish» (Farg‘ona vodiysi misolida) nomidagi ilmiy loyihasi bo‘yicha Farg‘ona vodiysida olib borilgan tadqiqotlar fikrimizning yaqqol dalilidir. Yaponiyalik olimlar J.Sugavara, Sh.Yasushi, Ya.Kavaxara, M.Savada kabi olimlar jumladan Farg‘ona viloyati ziyoratgohlarni ham tadqiq qildilar. Yaponiyalik tadqiqotchilarning Farg‘ona viloyat o‘lkashunoslik muzeyi ilmiy xodimlari bilan olib borgan tadqiqotlari natijasida «Markaziy Osiyodagi islomga oid muqaddas joylarni tadqiq qilish: Farg‘ona va Qoshgar» nomli Farg‘ona vodiysidagi ziyoratgohlarga doir maqolalar to‘plami, hamda 3 jildlik «Sinszyan va Farg‘onada topilgan mozor xujjatlari» nashri chop etildi.

Farg‘ona viloyatida 19 ta tuman shaxarlarida jami 200 dan ziyod mahalliy va respublika ahamiyatiga ega bo‘lgan ziyoratgohlar 1997-1998 yillar va 2004-2007 yillar davomida Farg‘ona o‘lkashunoslik muzeyi hodimlari va tarixchi olimlar dala tadqiqotlari va mavjud manbalarni tatqiq qilish davomida islom dini bilan bog‘lik bo‘lgan ko‘plab ziyoratgohlar tarixi o‘rganildi.

Jumladan Quva tumani hududida 40 yaqin ziyoratgohlar bo‘lib, ular Chilla mozortepa ziyoratgohi, Sa’d ibn Vaqqos ziyoratgohi, Qorovul ota ziyoratgohi, Ho‘jam podshox ziyoratgohi, Bilol ota ziyoratgohi, Shahid mozor ziyoratgohi, Sayidi A’lo ziyoratgoxlari Qo‘qon shahar hududida 20 ga yaqin ziyoraratgohlar mavjud. Chinbirlik aziz ziyoratgohi, Yalong‘och ota ziyoratgohi, Ko‘kto‘nli ziyoratgohi, Xizr ota ziyoratgohi, Shayh Mavlaviy Jabaliy ziyoratgohi, Azizxo‘ja eshon ziyoratgohi, Xakim halfa eshon ziyoratgohi, Daxmai shohon ziyoratgohi, Modarixon ziyoratgoxi, Avliyo ota ziyoratgohi, Mo‘yi muborak ziyoratgoxlari eng

mashxurlari hisoblanadi. Dang'ara tumani hududida yuzdan ziyod ziyoratgoxlar mavjud bo'lib ularning eng mashxurlari Laylak mozor ziyoratgohi, Ho'jayi Turob ziyoratgoxi, Ho'jayi Xizr ziyoratgoxlari eng mashxurlari xisoblanadi. Rishton tumani hududida 30 yaqin ziyoratgoxlar mavjud bo'lib ularning eng mashxurlari Ho'jayi Xizr, Xo'jayi Rushnoyi, Ho'jayi Gaz, Xasan Kulol, Hoja Ansoriy, So'fiy Sodiq, Ho'ja Abdurahmonxoja kabi avliyolar ziyoratgoxlari xalq orasida juda mashxur. Marg'ilon shahar xududida jami 40 yaqin ziyoratgoxlar mavjud bo'lib Podshox Iskandar ziyoratgohi, Mo'yi Muborak ziyoratgohi, Shoh Mansur ziyoratgohi, Ulug' Xazrat Bobo ziyoratgohi, G'avsul A'zam ziyoratgoxi, Hojam Podshoh ziyoratgohi, Ho'ja Ma'oz ziyoratgoxi, Pur Siddiq ziyoratgohi, Hoja Muhammad ziyoratgohi, Dovudxo'ja ziyoratgohi, Shoira Uvaysiy ziyoratgohi kabi ziyoratgoxlari xalq orasida juda mashxur.

Namangan shahrida ajdodlarimiz tomonidan bunyod etilgan bir qator memoriy yodgorliklar barisi yoshlarimizni tug'ilib o'sgan yurtlariga mehr-muruvvatlarini yanada yuksaltirishda muhim omildir. Ular Atoulloxon To'ra masjidi, Xo'jamning maqbarasi, Azizxo'ja Eshon madrasasi va masjidi, Mulla Qirg'iz madrasasi, Mulla Bozor Oxund majmuasi, Maxdumi Eshon masjidi, Qirtezxo'ja eshon uyi va shu kabilardir[28].

Keyingi yillarda tanib bo'lmas darajada o'zgarib, yangicha qiyofa kasb etib borayotgan Namanganning qoq markazida Prezidentimizning bevosita maslahatlari va yo'l-yo'riqlari asosida shunday maydon vujudga keldi va u bugungi kunda Namanganliklarning go'zal va sevimli maskanlaridan biriga aylandi. Maydon markazida milliy monamental san'atimizning noyob namunasi sifatida qad rostlagan Tinchlik stellasi esa barchamizga g'urur va iftixor bag'ishlamoqda. Namangan yoshlari o'zlarining yangi oila qurishdan oldin eng baxtli damlarini ushbu monumentga gullar qo'yishdan boshlaganlari xam quvonarlidir.

[28] Mirzaliev E. Namangan madaniyati tarixidan lavhalar. –Namangan., 1994. –B. 10.

Mustaqillik yillarida milliy qadriyatni anglash, ajdodlarga hurmat bobida juda ko‘p tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2 mlrd.so‘m mablag‘ evaziga qurilgan, Sharq ma’naviy memorchilik ananalarini o‘zida mujassam etgan Xotira maydoni Prezidentimizning Namangan shahriga tuxfa etgan ajoyib sovg‘asi bo‘lganligi bilan ham qadrlidir. Xotira maydoni to‘ridagi Motamsaro ona xaykali o‘rin olgan xaykalga boqarkamiz, uning siymosida sabr-bardoshli, matonatli vafodor, sadoqatli onalarning timsolini ko‘ramiz. Haykalning ikki tomonida bejirim, qo‘rkam avlodlarga esa viloyatlarimizdan frontga borib, qaytmagan 37 ming insonning muborak nomi kitob shaklidagi taxtachalarga o‘yib ko‘rsatilgan. Bular Namangan shahrida yoshlarni madaniy-ma’rifiy tarbiyasida katta omil vazifasini bajaradi.

Mustaqillik tufayli Namanganda xam diniy qadriyatlarimiz qayta tiklandi. Buni biz xamshaharlarimizni muborak xaj safarlariga, umraga emin-erkin borib kelayotganliklarida, xayit, navro‘z bayramlari qayta tiklanib nishonlanayotganligida xam ko‘rishimiz mumkin. Yana shuni aytish joizki maqsad, madrasalarimiz mustaqillik tufayli qayta xayot yuzini ko‘rdi.

Mustaqillik sharofati tufayli mamtakatimizda insonni e’zozlash, milliy va ma’naviy qadriyatlarimizning yuksalishiga katta etibor qaratilmoqda. Namangan viloyati, Namangan shahar hokimiyatlarining bevosita rahbarligi ostida viloyatimiz va shahrimiz tarixining «Ikkinchi jahon urushi»ga oid qismining o‘rganish, urush ishtirokchilarining hayot yo‘lini, jangovor ishlarini umumlashtirish va tiklash bo‘yicha keng ko‘lamli xayrli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Bunda ayniqsa, viloyat o‘lkani o‘rganish muzeyi, viloyat xotira va qadrlash uyi ilmiy xodimlari, O‘zbekiston Respublikasi «Kamolot» Yoshlar Ijtimoiy harakati viloyat shahar kengashi bilan hamkorlikda olib borayotgan ishlari diqqatta sazovor[29].

Viloyat «Xotira va qadrlash uyi» muzeyi har doim odamlar bilan gavjum, ayniqsa yoshlar bilan «Xotira va qadrlash uyi» muzeyining ilmiy fondi ko‘rgazma zallarida

[29] O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalari yosh olimlar talqiqotlarida: asosiy yo‘nalishlar va yondashuvlar // Respublika yosh olimlarining an’anaviy ikkinchi ilmiy konferensiyasi materiallari to‘plami. –Toshkent: Fan. 2010. 24-25 may. – B. 28.

qo‘yilgan tarixiy - madaniy eksponatlar, kishilarning jangoxlarda hamma mehnat jabhalarida ko‘rsatgan qahramonliklarini namoyon etadi. Katta avlodni jasoratlari yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda Vatan va xalq oldidagi burchini shakllantirishda qudratli vositadir.

An’analar asosida tarbiyalash yoshlarga katta avlod tarbiyasining eng yaxshi xislatlarini singdirish, yoshlarni mehnat va harbiy jasoratga yo‘naltirishdangina iborat emas, balki ularni xamisha xushyor bo‘lish qiyinchiliklarga dosh berishga ham o‘rgatadi[30].

«Xotira va qadrlash uyi»da urush va mexnat faxriylari xamda baynalminal jangchilar bilan uchrashuvlar o‘tkazish, yoshlarga pasportlar, maktabni tugallaganligi xaqidagi guvohnomalarni topshirish, yigitlarni harbiy xizmatga kuzatish marosimlarini o‘tkazish an’anaga aylangan, Bu yoshlarimizda Vatanga mexr - muhabbat, ota - bobolarimiz jasoratiga hurmat ruhini shakllantirishga maktab bo‘lib hizmat qiladi.

Namangan shaxridagi «Viloyat o‘lkani o‘rganish muzeyi» yoshlarni bobolar an’analariga milliy qadriyatlarga sadoqat ruxida tarbiyalashda muxim vositagina bo‘lib qolmay, uning dovrug‘ini eshitgan katta-yu kichik tezroq borib ko‘rishga intiluvchi diltortar dargohdir. Namangan shahri keng qamrovli tarzda fuqarolarni va yoshlarni ma’naviy-ma’rifiy onglarini mustaxkamlashda muzey tadbirlarining o‘rni katta axamiyat kasb etmoqda. Jumladan bu dargohda «Alisher Navoiy», «Bobur», «Amir Temur» tavallud kunlari, Boboraxim Mashrab kunlari ayniqsa milliy qadriatlarimiz «Navro‘z» bayrami, «Xotira va qadrlash kuni», «Mustaqillik» kuni muntazam ravishda badiiy musiqali, ko‘rgazmali tarzda nishonlab kelinishi bilan yoshlar qalbida chuqur iz qoldirmoqda[31].

Namangan shaxridagi «Alisher Navoiy nomidagi viloyat musiqali dramma» teatri viloyatda, shaxarda madaniy - ma’rifiy ishlar taraqqiyotida o‘ziga xos o‘ringa

---

[30]Karimov I.A. 2012–yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yi l bo‘ladi.// Xalq so‘zi. 2012 yil 19 may.

[31] www.ziyo.uz.

ega. Uning tarixiga nazar tashlasak «Alisher Navoiy nomli Namangan viloyat musiqali drama teatri» 1931 yil 15 iyunda A.Sultonovning izlanishlari asosida ochilgan edi. SHundan buyon xalqimizga ezgulik nurini yoyib kelmoqda.

Tarixdan malumki, teatr insonlarni ezgulik, poklik, yaxshilik sari yetaklab kelgan eng qadimgi san'at turlaridan biridir. SHu boisdan ham 1998 yil 26 mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekistonda teatr san'atini rivojlantirish to'g'risida»ga farmoni e'lon qilindi. Farmonga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Madaniyat Ishlari Vazirligi tizimida «O'zbekteatr» moddiy ishlab chiqarish birlashmasi va uning qoshida teatr ijodkorlari uyushmasi tashkil etildi.

Ma'naviyat va ma'rifat o'chog'i bo'lgan Namangan shahridagi teatr binosi mustaqillik sharofati bilan xaqiqiy madaniyat inshoatiga aylandi. Teatr binosi zamonaviy me'moriy arxitektura uslubida tashqi va ichki qismlar to'la yangidan me'moriy qayta ta'mirdan chiqarildi. Uning atrofidagi favvarolar, gulxonalar, yo'llarni yoritg'ichlar so'ngi rusum memoriy uslubdan foydalangan holda bezak berib jihozlandi. Bularning barchasi xalqimiz qalbiga yorug'lik, omonlik, ma'naviy poklanish ozuqasini ulashayotganligi kishi dilini hushnud etmoqda[32].

Xozirgi kunda davlatimiz tomonidan turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'zining ijobiy natijalarini berib kelmoqda. Biroq, murakkab o'tish davri bilan bog'liq talaygina muammolar tufayli bu sohada ham ayrim kamchiliklar mavjud. Turizmni rivojlantirish asosan "Buyuk Ipak Yo'lida" joylashgan shaharlarga qaratilganligi tufayli, Farg'ona viloyatidagi Qo'qon, Marg'ilon, Quva shaharlari «Buyuk Ipak Yo'li» chorrahasida joylashganligini inobatga olib, bu xududdagi ziyoratgohlar bilan turistlarni tanishtirish, yangi turistik yo'nalishlar tizimini qayta ko'rib chiqish va ushbu yo'nalishlarda turistlarni joylashtirish uchun motel va kempinglarni barpo etish muhim masalalardan biridir.

---

[32] Mirzaliev E. Bazarova M. Namanganning XIX asr oxiri XX asr boshidagi sotsial-iqtisodiy va madaniy rivojlanishi. –Toshkent: Qatortol-kamolot, 1998. –B. 16.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, mustaqillik yillarida Farg‘ona vodiysi shaharlarining madaniy-ma’rifiy taraqqiyotida ulkan ishlar amalga oshirildi. Bu amalga oshirilgan ishlar vatanga sadoqatli farzandlarni tarbiyalashda muxim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

## 2.2. Mustaqillik yillarida Farg‘ona vodiysida ta’lim tizimining isloh qilinishi

Mustaqilligimiz tufayli yangicha ong va yuksak ma’naviyat uchun kurash chinakam davlat siyosatiga aylandi. O‘tgan yillar mobaynida bu yo‘nalishda ulkan qadamlar qo‘yildi. Xalqimizning ong va dunyoqarashi tubdan o‘zgarmoqda va bu jarayon tobora chuqurlashib, ma’naviy rivojlanishida yangi davonlarga intilmoqdamiz. Ma’naviyatimizni yuksaltirishda ziyolilarning katta o‘rni bor. Ular xalqimiz, xususan beg‘ubor yosh qalblarga ma’rifat, chin insoniylik, mexnatsevarlikni o‘rganmoqdalar. I.A.Karimov «Manaviyat va ma’rifatni joriy qilish har bir ziyolining vijdon ishidir»-deb takidlaydi. U yana «Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng biz soxta mafkuraning yakka hokimlikdan qutildik. Ma’rifatli-mafkurani zug‘umlardan ozod qilib, erkin fikrga milliy tafakkurga keng yo‘l ochdik. Endi asosiy vazifa kishilarimizni mustaqil fikrlashiga o‘rganildi,  o‘ziga ishonchining orta borishidir. CHunki tafakkur ozod bo‘lmasa ong va shuur tazyiqdan qutilmasa inson ozod bo‘la olmaydi».

Musulmonlarimizning ma’rifat va ma’naviyat yo‘lidagi barcha ezgu istaklari asrlar davomida diniy maktablar, madrasalar, shuningdek masjidlar orqali amalga oshirib kelinganligi sir emas. Ammo mustabid-sho‘rolar davrida diniy qadriyatlarimiz paymol etildi, din peshvolari quvg‘in qilinganligi hammaga ayon.

1991 yilda e’lon qilingan mustaqillik O‘zbekiston tarixida yangi sahifa ochdi. Istiqlolning qisqa, ammo sharafli tarixiy davri ichida mamlakatimizda davlat va jamiyat qurishning mutlaqo yangi siyosiy asoslari yaratalishi bilan birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy sohada ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi. O‘zbekiston Rsspublikasi Prezidenti I.A.Karimov mustaqillik bilan bog‘liq barcha ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy masalalar qatorida inson, ayniqsa yosh avlod ta’lim-tarbiyasi, jumladan, O‘zbekistonda umumiy o‘rta ta’lim tizimi rivojiga alohida e’tibor berdi. Zotan ta’lim tarbiyaviy yuqori bosqichga ko‘tarmasdan turib, yangi

jamiyatni ijtimoiy-tarixiy munosabatlarni va yangicha dunyoqarashni barpo etishi mumkin emasligi ayon bo‘ldi[33].

O‘zbekiston Respublikasida jumladan, Farg‘ona vodiysida ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ijobiy natijalaridan eng muhimi sifatida davlat tomonidan yosh avlodga ta’lim berish va tarbiyalash borasida qilinayotgan ishlarni alohida ta’kidlash lozim. Xususan «Biz yurtimizni yangi bosqichga, yangi yuksak marraga olib chiqmoqchi ekanmiz, bunda bizga ulug‘ g‘oya kerak. Bu g‘oyaning zamirida xalqimizning o‘zligini anglashi yotadi».

Islom Karimovning rahnamoligi va bevosita ishtirokida ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida» gi qonuni, kadrlar tayyorlash milliy modeli va dasturi O‘zbekiston mustaqilligining samarasi va yutug‘i ekanligi, shubxasizdir. «Ta’lim to‘g‘risida» gi qonun va kadrlar tayerlash Milliy dasturi (1997 y) respublikada ta’lim isloxotlarini chuqurlashtirishda muhim bosqichigina bo‘lib qolmasdan, balki bu sohani muntazam takomillashtirib borishda muhim axamiyatga egadir.

Farg‘ona vodiysida ta’lim islohotlarining boshlanishi va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi vazifalarining birinchi va ikkinchi sifat bosqichi vazifalarini bajarilishi 1991 - 2005 davrini o‘z ichiga oladi. Aynan shu davrda respublikada, shuningdek, vodiyda ta’lim isloxotlari ham kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilinib, unda qo‘yilgan vazifalarini amalga oshirish jarayonlari boshlandi. Ta’limning milliy modeli yaratilib yangi turdagi o‘quv yurtlari shakllandi. Bu davrda ta’lim davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishi qilib belgilandi va uning ilk natijalari ko‘rina boshladi.

Farg‘ona vodiysining Namangan viloyatida 2003 yilning o‘zida ta’lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘kitishning interfaol uslublarini qo‘llash bo‘yicha 12 ta metodik tavsiyanomalar tayyorlangan. O‘quv yurtlarning 23 tasi «Internet» ga ulangan. Tashabuskor pedagog yoki muhandis -

[33] Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. –Toshkent: Sharq. 1997. –B. 45.

pedagoglardan 34 nafarining ish tajribalari ommaviy axborot vositalari orqali, 182 nafari esa stend, panno usulida ommalashtirilgan. 2003 yilda kasb-xunar kollejlari o‘quvchilarining «Eng iqtidorli o‘quvchi» ko‘rik tanlovining viloyat bosqichida 212 o‘quvchining, respublika bosqichida 96 o‘quvchining ishtiroki, akademik litseylarning 2-kurs o‘quvchilari uchun o‘tkazilgan eksternat natijalariga ko‘ra, 979 ishtirokchidan 558 nafari imtixonlardan muvaffaqiyatli o‘tib, 2 - kursdan 3 - kursga o‘tganligi aynan ta’lim jarayonini takomillashtirish borasidagi izlanishlar natijasidan dalolat beradi.

O‘quvchi talabalarning bo‘sh vaqtlaridan unumli foydalanishlari, ularning sog‘lom bo‘lib etishishlari maqsadida yangi turdagi o‘quv yurtlari tizimida Respublika ommaviy sport musobaqalarini o‘tkazish nizomi ham ishlab chiqildi. Bu borada «Barkamol avlod» sport musobaqalarini xam alohida ta’kidlash o‘tash joizdir. 2003 yilda o‘tkazilgan bu musobaqada 2001 yilda o‘tkazilgan sport turlariga nisbatan 6 turga, ishtirokchilar soni esa 950 nafarga ko‘paydi[34].

1992 yil iyulida «Ta’lim to‘grisida» gi Qonun qabul qilinib, respublikamizda umumiy ta’lim 3 bosqichda amalga oshirila boshladi. Qonun asosida bir qator konsepsiyalar va dasturlar yaratildi, 20 dan ortiq yo‘nalishlar, fanlar bo‘yicha standartlar loyixalari tayyorlandi. O‘quv muassasalari farliitida yangilanish jarayonlari kuchaydi. Masalan, Farg‘ona viloyagida 1-sinflarga o‘quvchilarni tanlov asosida qabul qilish tajribasi qo‘llanila boshlandi. Bu esa o‘z navbatida ijobiy samaralar bera boshladi.

1991-1992 o‘quv yilida 1338 maktabda u yoki bu predmet chuqurlashtirib o‘qitilgan bo‘lsa, 1995-1996 o‘quv yilida ularning soni 3120 taga etdi. Yangicha ta’lim siyosati yangi turdagi o‘quv muassasalarning vujudga kelishi va ular safining kengayishiga olib keldi. Agar 1991 - 1992 o‘quv yilida ularning soni 16 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 1995 - 1996 o‘quv yilida esa 178 ta litsey, 105 ta gimnaziya faoliyat ko‘rsata boshladi.

[34] www.ziyonet.uz.

Bu o‘quv muassasalariga iqtidorli o‘quvchilar qabul qilinib, ularning ta’lim olishiga sharoit yaratildi. Shu o‘rinda Andijon viloyati Marxamat tumanidagi 5-litsey, Farg‘ona viloyati Besharik tumanidagi Ibn Sino nomli litseyning yuqori sinf o‘quvchilari o‘z o‘qituvchilari bilan «O‘qituvchi-o‘quvchi» shaklida emas, balki «ilm oluvchi - ilm olishga yo‘naltiruvchi» shaklida ish yurita boshladi. Andijon viloyati Asaka shahridagi gimnaziyada ingliz, nemis, fransuz tillari chuqur o‘rgatilishi bilan birga o‘quvchilarga - milliy ruhda tarbiya berish, salomlashish odoblari, ko‘cha va jamoat joylarida o‘zini tutish, madaniy-maishiy tadbirlarda faol ishtirok etish kabi milliy ruhdagi tarbiya asoslari ham berib borildi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlab o‘tish joizki, O‘zbekistonda qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta’lim rivoji va Kadrlar tayyorlash tizimi takomillashuvida, shu jumladan, Farg‘ona vodiysida ham boshlangan ta’lim islohotlarining chuqurlashuvida muhim bosqichni boshlab berdi. Milliy dastur va uning negizida yaratilgan milliy model asosida uzluksiz ta’lim tizimi shakllanib, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beradigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimi vujudga keldi.

# XULOSA

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda jumladan, Farg'ona vodiysi shaharlarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy isloxotlarning samarali bo'lishida O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishida o'ziga xos yo'li ishlab chiqilganligi muxim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu borada Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va hayotga tadbiq etilgan 5 tamoyili bir tuzumdan ikkinchi tuzumga o'tish davrida muhim va xal qiluvchi rol o'ynamoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston shaharlari shu jumladan o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan Farg'ona vodiysi shaharlari yana bir bor o'zining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy va ilmiy texnikaviy sohalarda ziyo tarqatuvchi markaz ekanligini ko'rsatib kelmoqda. Barcha sohalarda islohotlar va yangilanishlar dastavval shaharlarda amalga oshirildi, so'ngra ularning ilg'or tajribalari respublikaning boshqa xududlariga joriy qilindi. O'zbek modelining o'ziga xos muxim xususiyati, amalga oshirilayotgan tub iqtisodiy isloxotlar kuchli ijtimoiy siyosat bilan birgalikda olib borilishida edi.

Respublikada, shuningdek o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatga ega bo'lgan Farg'ona vodiysi shaharlarida kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi va hayotga tadbiq etildi. Natijada aholini ijtimoiy ximoyalash, insonga munosib hayot sharoiti, o'zini namoyon qila olishi uchun imkoniyatlar yaratish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Aholini ish bilan ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish, ularning turmush darajasini oshirish, axoliga tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash borasida ijobiy natijalarga erishib kelinmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy isloxotlar davrida shaharlar infrastrukturasidagi bir qator ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Shaharlarda obodonlashtirish ishlari keng ko'lamda olib borildi, shaharlarning ko'rkiga ko'rk qo'shuvchi, milliy an'analar bilan sug'orilgan zamonaviy ko'rinishdagi binolar qurilmoqda.

Bugun asrlar davomida orzu qilingan istiqlolga erishib, milliy davlatchiligimizni tiklamoqdamiz va mustaqil davlat qurmoqdamiz. Davlatimizning qanchalik tez ulg‘ayishi, kuch-quvvat ato etishi, dunyo hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi, avvalombor, xalqimiz ma’naviy saviyasi, g‘ururi va faxri nechog‘lik yuksak bo‘lishiga bog‘liqdir. Ana shuni inobatga olgan holda yangi jamiyat barpo etishda eng asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida xalqimiz tarixini, ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash vazifasi qo‘yildi.

Istiqlol tufayli ushbu ilmiy tadqiqotda yoritilgan Farg‘ona vodiysining mustaqillik yillaridagi tarixi va madaniyati ham mustaqil vatanimiz tarixining ajralmas bir bo‘lagidir.

O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi inson faoliyati va xayotining barcha sohalari bo‘yicha o‘xshashi yo‘q ijobiy o‘zgarishlar uchun mustaxkam poydevor yaratdi. Xususan ma’naviy xayotimizda asrlar davomida yuz bergan o‘zgarishlardan ham buyuk ezgu ishlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqil davlatning barpo qilinishi bilan O‘zbekistonning haqiqiy tarixi, yangi tarixini tiklash uchun zaruriyat va imkoniyat yaratildi va bu masala respublikada davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekistonning yangi tarixini yaratish va nashr etish borasida, viloyatlar, shaharlar tarixini tiklash va ularning tarixiy sanalarini o‘tkazish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonning qadimiy tarixida, davlatchiligimiz taraqqiyotida Farg‘ona vodiysi o‘ziga xos, salmoqli o‘rin tutadi.

Xullas, mustaqil O‘zbekiston Respublikasi davlati va xukumati shahar va viloyatlar tarixini o‘rganishga va uni ommalashtirishga, ularda istiqomat qilgan axolining mamlakat, jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan xizmati va xissalarini o‘rganish, bu shahar va viloyatlarning kundalik hayotimiz va faoliyatimizning barcha sohalaridagi ulkan yutuqlarini o‘rganishga, targ‘ib-tashviq etishga juda katta e’tibor bermoqda.

Yaqin vaqtlarga qadar Farg‘ona vodiysi hududidagi urbanizatsiya jarayoni, jamiyat rivojlanishida shaharlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi, shahar madaniyatining shakllanish jarayoni etarli darajada o‘rganilmay kelingan edi. Farg‘ona vodiysi tarixi bugun jahonga yuz tutgan, tenglar orasida teng bo‘lgan O‘zbekiston umumiy tarixining ajralmas tarkibiy qismi, bir bo‘lagidir. Vodiy hududidagi shaharlarning uzoq tarixiy taraqqiyot davomidagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy va madaniy hayotidagi yutuqlarini hamda tarix silsilalaridagi barcha salbiy jihatlar, fojeali sahifalaridan hozirgi va kelgusi avlod xabardor bo‘lishi zarur.

Ushbu xulosalar asosida Bitiruv malakaviy ishi natijalaridan foydalanish bo‘yicha quyidagi tavsiyalar ishlab chiqilgan:

1. Mustaqillik yillarida Farg‘ona vodiysi shaharlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni keng o‘rganish maqsadida oliy o‘quv yurtlarining ijtimoiy yo‘nalishlarda shaharlar tarixi bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etish;
2. Farg‘ona vodiysi shaharlari tarixining ko‘pgina jihatlarini butun tafsiloti bilan o‘rganishga yordam berishi mumkin bo‘lgan shaharlar tarixiga oid xrestomatiya va hujjatlar to‘plamini chop ettirish lozim.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

### I.Rahbariy adabiyotlar

1.1. Каримов И А. Ўзбекистоннинг истиқлол ва тараққиёт йўли. -Тошкент: Ўзбекистон, 1992. – 124 б.

1.2. Каримов И.А., Миллий истиқлол мафкураси халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. -Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 148 б.

1.3. Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. -Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – 178 б.

1.4. Каримов И.А. Баркамол авлод Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. -Тошкент: Шарқ. 1997. – 248 б.

1.5. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак ёъқ. –Тошкент: Шарқ, 1997. – 78 б.

1.6. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХИ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 348 б.

1.7. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998. – 256 б.

1.8. Каримов И. А. Жамиятимиз мафкура халқни–халқ, миллатни – миллат қилишга хизмат этсин. -Тошкент: Ўзбекистон. 1998. – 247 б.

1.9. Каримов И.А. Инсон унинг ҳуқуқ ва эркинликлари олий қадрият. 14-том. –Т.: Ўзбекистон. 2006. – 256 б.

1.10. Каримов И.А. Асосий мақсадимиз-юртимизда эркин ва обод, фаровон ҳаёт барпо этиш йўлини қаътият билан давом эттиришдир. -Тошкент: Ўзбекистон, 2007. – 248 б.

1.11. Каримов И.А. Юксак маънавият-энгилмас куч. -Тошкент: Маънавият, 2008. – 178 б.

1.12. Karimov I.A. Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatinin shakllantirish–mamlakatimiz taraqqiyotininng asosiy mezonidir. 19- jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 345 b.

1.13. Karimov I. A. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011. – 144 b.
1.14. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 440 b.
1.15. Karimov I.A. 2012–yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yi l bo‘ladi.// Xalq so‘zi. 2012 yil 19 may
1.16. Karimov I.A. Bizning yo‘limiz demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo‘lidir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2012. – 312 b.
1.17. Karimov I.A. Mustaqillik–barcha ezgu reja va marralarimizning mustahkam mezonidir // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning davlat mustaqilligining 22 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so‘zi. Xalq so‘zi. 2013 yil 2 sentyabr.
1.18. Karimov I.A. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish–yorug‘ kelajagimizning asosiy omilidir // O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 21 yillligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. O`zbekiston ovozi. 2013 yil 10 dekabr.
1.19. Karimov I. A. Tinchlik va ahillik – mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligimiz asosidir // O‘zbekiston Respublikasi I. A. Karimovning 9-may “Xotira va qadrlash kuni” munosabati bilan so‘zlagan nutqi. O`zbekiston ovozi 2014 yil 10 may.
1.20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 6 fevraldagi PQ-2124-sonli “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori // Turkiston. 2014 yil 8 fevral.
1.21. O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi 2015 yil 29 mart.

## II.1. Adabiyotlar:


1.1. Абдуллаев О. Наманган вилояти (табиати, аҳолиси, хўжалиги). – Наманган: Наманган вилояти ҳокимиятиноширлик бўлими, 1995. – 150 б.

1.2. Абдуллаев О. Фарғона водийси: ижтимоий-иқтисодий ривожланиш жараёнлари. –Наманган, 2000. – 290 б.

1.3. Азимов И.М. Фарғона водийсининг архитектура ёдгорликлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1986. – 72 б.

1.4. Акрамов З. Наманганская область. –Ташкент; 1995. – 176 с.

1.5. Акрамов З.М. Фарғона водийси. –Тошкент: Фан, 1957. – 87 б.

1.6. Алимова Д.А. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йй). –Тошкент: Шарқ, 2002. – 416 б.

1.7. Ата-Мирзаев О., Муртазаева Р., Генштке Р., Салиев А. Историко-демографические очерки урбанизации Узбекистана. –Ташкент: Университет. 2002. – 159 с.

1.8. Андижон тарихидан лавҳалар / Маъсул муҳаррир: П Исроилов. – Андижон: Андижон нашриёт матбаа, 2008. – 260 б.

1.9. Аҳмедов Э. А. Ўзбекистон шаҳарлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1991. – 221 б.

1.10. АЪзамхўжаев С. Туркистон бирлиги (Мустақиллигимиз тарихидан саҳифалар). –Тошкент: Фан, 1995. – 16 б.

1.11. АЪзамхўжаев С. Туркистон мухторияти: миллий демократик давлатчилик қурилиши тажрибаси. –Тошкент: Маънавият, 2000. – 168 б.

1.12. Вахобова Н. Ўзбекистоннинг янги шаҳарлари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1973. – 40 б.

1.13. Жадидчилик: ислохат, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш (Туркистон ва Бухоро жадидчилиги тарихига янги чизгилар). Даврий тўплам. 1. –Тошкент: Университет, 1999. – 219 б.
1.14. Жалилов С. Андижон. –Тошкент: Ўзбекистон, 1989. – 79 б.
1.15. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. –Тошкент: Шарқ, 1998. – 478 б.
1.16. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи. –Тошкент: Шарқ, 2001. – 447 б.
1.17. Зиёева Д. Туркистон миллий озодлик ҳаракати (Мустабид тузумга қарши 1916 йил ва 1918-1924 йиллардаги курашлар тарихшунослиги). –Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 174 б.
1.18. Каримов Ш. Қафасдаги қуш орзуси. –Тошкент: Фан, 1991. – 64 б.
1.19. Колбинсев А.П. Фарғона водийси бўйлаб. –Тошкент: Ўзбекистон, 1979. – 102 б.
1.1. Марғилон шаҳрининг жаҳон сивилизатсияси тарихидаги ўрни. Марғилон шаҳрининг 2000 йиллик юбилейига бағишланган халқаро илмий конференсия материаллари. Тошкент-Марғилон: Фан, 2007. – 222 б.
1.1. Марғилон. Таҳрир ҳаяти: Солихов Ш ва бошқалар. –Тошкент: Шарқ, 2007. – 225 б.
1.2. Маннопов С. Марғилон-маданият ва саноат маркази // Марғилон шаҳри ўтмиши, бугуни ва эртаси мавзусидаги республика илмий семинар материаллари. –Фарғона, 2007. –Б. 89-90.
1.3. Мирзалиев Э.Ю. Наманган шаҳар халқ маорифи тараққиёти тарихидан. –Наманган., 1989. – 31 б.
1.4. Мирзалиев Э.Ю. Наманган маданияти тарихидан лавҳалар. –Наманган., 1994. – 105 б.

1.5. Мирзалиев Э. Базарова М. Наманганнинг ХИХ аср охири ХХ аср бошидаги сотсиал-иқтисодий ва маданий ривожланиши. –Тошкент: Қатортол-камолот, 1998. – 168 б.
1.6. Муллажанов И.Р. Ўзбекистон аҳолиси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1974. – 141 б.
1.7. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шоҳидлиги ва сабоқлари (1865-1990 йиллар). Маъсул муҳаррир Д.А. Алимова. –Тошкент: Шарқ, 2000. – 432 б.
1.8. Нурмуҳаммедов Х., Жалилов С., Ҳамидов Ю. Андижон. –Тошкент: Ўзбекистон, 1984. – 90 б.
1.9. Ражабов Қ.К. Ҳайдаров М.М. Туркистон тарихи (1917-1924 йиллар). – Тошкент: Университет, 2002. – 168 б.
1.10. Рахимов М. История Ферганы –Ташкент: Фан, 1984. – 129 с.
1.11. Расулов А.Н. Туркистон ва Волгабўйи, Уралолди ҳалқлари ўртасидаги муносабатлар. –Тошкент: Университет, 2005. – 200 б.
1.12. Раҳматулина Р. Андижонда истиқлолчилик ҳаракати. –Андижон: Андижон нашриёти, 2002. – 56 б.
1.13. Рўзибоев Т., Хожимирзаев М. Наманган области. Справочник. – Ташкент: Узбекистан, 1981. – 176 б.
1.14. Салмонов А. Шарофиддинов А. Феврал инқилоби ва Туркистон жадидларининг маърифий фаолияти // “Ўзбекистон тарихининг айрим долзарб муаммолари” мавзуидаги вилоят илмий-назарий анжумани Материаллари. –Фарғона., 1999. –Б. 34-37.
1.15. Самадов Ю. Мавлоно Ибрат ворислари (Наманган вилоят босмахонаси тарихидан лавҳалар). –Наманган., 1999.
1.16. Сафаров Р., Муҳитдинов М., Жалолов Ж. Андижон области. –Тошкент: Ўзбекистон, 1973. –Б. 143.
1.17. Солихов Ш., Ғуломов С., Ширинов Т., Алимова Д., Хабибуллаев Н., Каримова С. Марғилон. –Тошкент: Шарқ, 2007. – 225 б.

1.18. Тиллаходжаев С., Юлдашев Т., Гафуров А. Фергана. –Ташкент: Узбекистан, 1977. – 103 с.
1.19. Тўҳтасинов И. Коканд. – Ташкент: Ўзбекистон, 1969. – 335 с.
1.20. Туркистон мустақиллиги ва бирлиги учун кураш сахифаларидан. – Тошкент: Фан, 1996. – 83 б.
2.1. Haydarov Z.U. Namangan viloyati: o’tmish va bugun (1917-2014). – Namangan. 2015. – 175 b.
2.3. Usmonov Y. Jannat bog‘i. Farg‘ona vodiysining tarixi, shaharlari tarixi, arxitektura yodgorliklari va o‘zbek milliy urf-odatlari haqida tarixiy badiiy qissa. –Farg‘ona nashriyoti, 1995. – 96 b.
2.4. Farg‘ona vodiysidagi shaharlar. –Toshkent., 1960. – 139 b.
2.5. “Farg‘ona vodiysi yangi tadqiqotlarda” mavzuidagi Respublika ilmiy anjuman materiallari. –Farg‘ona, 2009. 18 may. – 416 b.
2.6. “Farg‘ona vodiysi yangi tadqiqotlarda” mavzuidagi Respublika ilmiy anjuman materiallari. –Namangan, 2009. 18 may. – 416 b.
2.7. “Farg‘ona vodiysi yangi tadqiqotlarda” mavzuidagi Respublika ilmiy anjuman materiallari. –Andijon, 2015. 24 aprel. – 480 b.
2.8. SHarofiddinov A., Rashidov G., Nurmuxammedov X. Istoriya Andijana. – Tashkent: Fan, 1980. – 240 s.
2.9. YUsupov I. Mirzaliev E. Namangan shahri tarixidan lavhalar. –Namangan, 2010. – 112 b.
2.10. Qosimov Y.Q. Qora ko‘zoynak bilan yozilgan tarix. (Turkiston “Qo‘qon” Muxtoriyati, milliy-ozodlik harakati va mustaqillik uchun kurash tarixiga doir). –Namangan, 1993. – 104 b.
2.11. Qosimov Y. Namangan tarixidan lavhalar. (1917 yilgacha). –Toshkent: Fan, 1990. – 56 b.
2.12. Qo‘qon asrlar silsilasida // Respublika ilmiy-nazariy konferensiya materiallari. –Qo‘qon, 2004 yil 14 may. – 351 b.

2.13. O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida // Tuzuvchilar: Jo‘raev M., Nurullin R., Kamolov S va boshqalar. –Toshkent: SHarq, 2000. – 688 b.
2.14. O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalari: asosiy yo‘nalishlari va yondashuvlar // Respublika yosh olimlarining birinchi ilmiy konferensiyasi materiallari to‘plami. –Toshkent., 2009. – 352 b.
2.15. O‘zbekiston tarixining dolzarb masalalari yosh olimlar talqiqotlarida: asosiy yo‘nalishlar va yondashuvlar // Respublika yosh olimlarining an’anaviy ikkinchi ilmiy konferensiyasi materiallari to‘plami. –Toshkent: Fan. 2010. 24-25 may. – 288 b.

**Internet ma’lumotlari**

1. www.ziyonet.uz
2. www.ziyo.uz
3. www.gov.uz.